81.631.2
O-23

# O'ZBEKCHA-TURKCHA

## SO'ZLASHUV KITOBI

# ÖZBEKÇE-TÜRKÇE

## KONUŞMA KILAVUZU

Fuqarolik va ro'yxatdan o'tish qoidalari

Mehnat qilish va davolanish qoidalari

Maqollar va matallar

Jargonlar va argolar

# O‘ZBEKCHA-TURKCHA
## SO‘ZLASHUV KITOBI

# ÖZBEKÇE-TÜRKÇE
## KONUŞMA KILAVUZU

**Turkiyaga bormoqchi bo‘lganlar uchun**

- Fuqarolik va ro‘yxatdan o‘tish qoidalari
- Mehnat qilish va davolanish qoidalari
- Maqollar va matallar
- Jargonlar va argolar

4

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi
Y-9093/1

Toshkent
«Akademnashr»
2021

**UO'K 81-25(038)=512.133=512.161**
**KBK: 81.20'zb-4**
**Yu 91**

**Yu 91** **Yusupova, Nasiba**
O'zbekcha-turkcha so'zlashuv kitobi. Özbekçe-Türkçe konuşma kilavuzu [Matn]: / N.Yusupova. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 156 b.

ISBN 978-9943-5931-7-6

UO'K 811.512.161
KBK: 81.2Тук-4

*Ushbu so'zlashuv kitobi Turkiya sari turli maqsadlarda safarga otlanganlar uchun maxsus mo'jallangan qo'llanmadir. Siz unda turk xalqining o'ziga xos so'zlashuv tarzi, maqollar-u matallari, jargon va argolari bilan tanishasiz. Kitobning har bir bo'limida bugungi Turkiya hayotiga xos holatlar ham ilova qilinadi. Shu bilan birga, Turkiya Respublikasi qonunchiligida belgilangan xorij fuqarosi vaqtinchalik ro'yxatdan o'tishi va ishlashining tartib-qoidalari, tibbiy xizmatdan foydalanish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib o'tilgan.*

Tuzuvchi:
**Nasiba YUSUPOVA**

Taqrizchi:
**Abdumurod Tilavov**
filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-5931-7-6

© Nasiba Yusupova
«O'zbekcha-turkcha so'zlashuv kitobi.
Özbekçe-Türkçe konuşma kilavuzu»
© «Akademnashr», 2021

**MUNDARIJA**

1-QISM. 1. BÖLÜM


TURKIYA BILAN TANISHUV ..... 6
Turkiya Respublikasi haqida qisqacha ..... 6
Turkiya iqlimi ..... 7
Turk dasturxoni ..... 7
Turk xalqiga xos xususiyatlar ..... 7
TURKIYADA FUQAROLIK VA MEHNAT QILISH HUQUQI ..... 8
Fuqarolik va ro'yxatdan o'tish ..... 8
Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining huquqiy o'rni ..... 12
Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida qonuniy joylashuvi ..... 12
Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma va hujjatlar ..... 14
Chet el fuqarosining huquqiy holati ..... 14
Vaqtinchalik yashash uchun ruxsat ..... 15
Mehnat qilish huquqi ..... 15
TURK TILIDA SO'ZLASHUV ..... 19
Chegarada / Sınırda ..... 19
Poyezdda / Trende ..... 20
Aeroportda / Hava alanında ..... 23
Ko'chada / Sokakta ..... 25
Taksida / Takside ..... 27
Muhojirlar byurosida / Yabancılar Şubesinde ..... 28
Mehmonxonada / Otelde ..... 29


2-QISM. 2. BÖLÜM


UMUMIY BO'LIM / GENEL BÖLÜM ..... 32
Til, suhbat / Dil, sohbet ..... 35
Taklif / Davet ..... 37
Tarjimayi hol / Öz geçmiş ..... 38
Rozilik, norozilik / Razı gelmek, razı gelmemek ..... 41
Rad etish, taqiqlash / Reddetme, yasaklama ..... 42
Kechirim so'rash / Özür dileme ..... 43
Minnatdorchilik / Minnettarlık ..... 44
Iltimos / Rica ..... 46
Xayrlashuv / Vedalaşma ..... 47
Ajablanish / Şaşırma ..... 48

Yil fasllari, ob-havo / Mevsimler, hava durumu ..... 49
Sanoq va vaqt / Sayı ve zaman ..... 50
Ro'zg'or, ro'zg'or anjomlari / Ev bark, ev eşyaları ..... 55
Lug'at / Sözlük ..... 57
Dam olish / Dinlenme ..... 58
Qishloq xo'jaligi / Tarım ..... 60
Lug'at / Sözlük ..... 60
Sport / Spor ..... 62
Radio va televideniye / Radyo ve televizyon ..... 66

3-QISM. 3. BÖLÜM

SHAHARDA / ŞEHİRDE ..... 68
Jamoat transportida / Toplu taşımada ..... 68
Kadrlar bo'limida / İnsan kaynakları departmanında ..... 70
Qurilishda / İnşaatta ..... 71
Lug'at / Sözlük ..... 73
Militsiya mahkamasida / Karakolda ..... 75
Adreslar stolida / Nüfus Müdürlüğünde ..... 76
Pul jo'natish shoxobchasida / Para gönderme bürosunda ..... 76
Restoranda / Restoranda ..... 78
Lug'at / Sözlük ..... 81
Modalar uyida / Moda evinde ..... 86
Istirohat bog'ida / Parkta ..... 88
Teatrda / Tiyatroda ..... 88
Kinoteatrda / Sinemada ..... 90
Konsertda / Konserde ..... 92
Muzeyda / Müzede ..... 93
Kutubxonada / Kütüphanede ..... 95
Kitob magazinida / Kitapçıda ..... 97
Matbuot do'konida / Gazete bayisinde ..... 98
Optikda / Gözlükçüde ..... 98
Idorada / Kurumda ..... 99
Sanoat korxonalarida / Sanayi işletmelerinde ..... 99
Kasalxonada / Hastanede ..... 100
Lug'at / Sözlük ..... 101
Dorixonada / Eczanede ..... 104
Metroda / Metroda ..... 105
Lug'at / Sözlük ..... 106

Erkaklar sartaroshxonasida / Berberde ..... 107
Ayollar sartaroshxonasida / Kuaförde ..... 108
Kimyoviy kiyim tozalash xonasida / Kuru temizlemede ..... 108

4-QISM. 4. BÖLÜM

SAVDO-SOTIQ / ALIŞVERIŞ ..... 110
Magazin va bozorda / Mağaza ve pazarda ..... 110
Oziq-ovqat mahsulotlari / Gıda ürünleri ..... 111
Non mahsulotlari / Unlu mamuller ..... 113
Qandolat mahsulotlari / Şekerlemeler ..... 114
Go'sht rastasi / Et reyonu ..... 114
Baliq / Balık ..... 115
Sabzavotlar va mevalar / Sebzeler ve meyveler ..... 117
Poyabzal / Ayakkabı ..... 120
Lug'at / Sözlük ..... 121
Upa-elik mollari / Parfümeri ..... 121
Fotomollar / Fotoğraf malzemeleri ..... 123
Kiyimlar va gazmollar / Giysiler ve kumaşlar ..... 123
Gul magazinida / Çiçekçide ..... 126
Xo'jalik mollari / Ev aletleri ..... 127
Sport mahsulotlari / Spor malzemeleri ..... 127
Qog'oz-qalam mollari / Kırtasiye ..... 128
Zargarlik mollari / Ziynet eşyaları ..... 130

5-QISM. 5. BÖLÜM

TURKIYADA TIBBIY XIZMAT ..... 131
Vrach-terapevt qabulida / İç hastalıkları uzmanı muayenesinde ..... 133
Tish doktori qabulida / Diş hekimi muayenesinde ..... 136
Ko'z doktori qabulida / Göz doktoru muayenesinde ..... 137

6-QISM. 6. BÖLÜM

MAQOLLAR VA MATALLAR / ATASÖZLERI VE DEYİMLER ..... 138

7-QISM. 7. BÖLÜM

JARGON VA ARGOLAR / JARGON VE ARGOLAR ..... 148

# 1-QISM. 1. BÖLÜM

## TURKIYA BILAN TANISHUV

Siz Turkiyaga – o'zingiz uchun notanish bo'lgan hayot – odamlar, madaniyat va munosabatlar orasiga bormoqdasiz. Ular bilan qanday yuzlashasiz, qanaqa qilib muloqotga kirishasiz? Shu haqda hech o'ylab ko'rdingizmi? To'g'ri, bu borada taxminiy tasavvurlaringiz bor. Ammo ular yetarli emas. Shuni hisobga olib, ayni bo'shliqni siz mazkur kitobdan o'rin olgan ko'pgina ma'lumotlar orqali boyitish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

### Turkiya Respublikasi haqida qisqacha

Turkiya tabiat go'zalliklari, maftunkor manzaralari, cho'milish havzalari, ajoyib dam olish maskanlari, tarixiy shaharlari va mazvelari, diqqatga sazovor joylari, lazzatli taomlari bilan har yili millionlab sayyohlarga mezbonlik qiladi. Ushbu diyor dunyo va Yevropa davlatlari nuqtayi nazaridan sayyohlik tizimi eng rivojlangan davlatlar sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, dunyoning yetti mo'jizasidan biri Artemida ibodatxonasi Turkiyada joylashgandir. Marmara dengizi Istanbul bo'g'ozi (Bosfor bo'g'ozi) va Chanoqqal'a bo'g'ozi bilan birgalikda Osiyo qit'asini Yevropa qita'sidan ajratib turadi. Shu sababli, Turkiya jo'g'rofiy o'rni jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiya davlatining poytaxti – Anqara shahri. Rasmiy tili – turk tili. Uning hududlarga ko'ra, shevalari mavjuddir. Pul birligi esa lira, ya'ni turk lirasi.

O'lka tuproqlarining katta qismi Osiyo qit'asida, kichik bir qismi esa Yevropa qit'asida joylashgan. Turkiya shimoli-g'arb tomondan Bolgariya, G'arbdan Gretsiya, shimoli-sharq tomondan Gruziya, Sharqdan Armaniston, Eron va Ozarbayjonga bog'liq Navchixon muxtor respublikasi, janubi-sharq tomondan esa Iroq, Suriya davlatlari bilan chegaradosh. Janubda O'rta Yer dengizi, G'arbda Egey dengizi, Shimolda esa Qora dengiz uning qirg'oqlarini yuvib turadi. Istanbul, Anqara, Izmir, Antaliya shaharlari ko'pgina sayyohlarga o'z bag'rini hamisha ochadi.

## Turkiya iqlimi

Mintaqalarga ko'ra, iqlim farq qilsa ham, odatda, o'lkada mo'tadil ob-havo hukm suradi. Qora dengiz hududida mo'tadil, janubiy Egey sohillarida esa O'rta Yer dengizi iqlimi ustun. Ichki hududlarida kontinental va quruq ob-havoni, sharqiy hududlarida esa keskin tog' iqlimini kuzatish mumkin.

## Turk dasturxoni

Taomlar va ularning ta'm sifatlari hududlarga, shahar va istiqomatgohlariga ko'ra o'zgaruvchandir. Turk xalqi go'shtli taomlarni ko'proq xush ko'radi. Odatga ko'ra, mehmonnavozlik dasturxonga maxsus kosalarda suyuq taom – sho'rva (o'nga yaqin sho'rva turi mavjud) tortish orqali boshlanadi. Undan keyin go'shtli, sabzavotli yoki xamirdan tayyorlangan taomlar dasturxonga keltiriladi. Salat va turli-tuman gazak, ya'ni yengil taomlarning dasturxonda alohida o'rni bor. Taomdan keyin mehmonlar, albatta, biror shirinlik bilan siylanadi. Turk mehmonnavozligida maxsus choy va turk qahvasining o'ziga xos o'rni borligini ta'kidlash joiz.

## Turk xalqiga xos xususiyatlar

O'zgaruvchan iqlim sharoiti turk xalqidan katta matonat talab qiladi. Bu xalqning mentalitetidagi o'ziga xoslik ham doimiy qiyinchilik va davlat, hokimiyat atrofida birlashish bilan bog'liqdir.

Turklarning tabiatidagi beg'arazlik, fidoyilik xislatlarini darrov ilg'ab olishingiz mumkin. Turklarning vatan, yurt, tuproq, bayroqqa bo'lgan muhabbatini boshqa hech bir narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. Shuningdek, turk xalqining katta qismida Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafo Kamol Otaturkka bo'lgan ehtirom bitmas-tuganmasdir. Turk xalqi istiqlolni hamma narsadan ustun qo'yadi.

Yigitlari tabiatan baquvvat, jasur va alpqomat; qizlari esa go'zal va latofatli. Turklarning qonida mehribonlik, ochiqko'ngillik, beg'arazlik, chidamlilik, fidoyilik kabi fazilatlar jo'sh uradi. Ular, odatda, gina saqlamaydigan, rahmdil va mehmondo'st xalqdir.

Turkiyada Sharq va G'arb sivilizatsiyasi to'qnash kelgan. Bir-biridan tubdan farq qilgan bu ikki qutb va madaniyat turk xalqi mentalitetidagi murakkablikni keltirib chiqargan. Buyuk imperatorliklarni, buyuk davlatlarni qurgan bo'lsalar-da, Sharq kishisiga oid kamsuqumligi bilan g'arbliklar qarshisida har doim hurmat saqlagan.

Jangchi ruhi qoniga singganligi bois jang va askarlik san'atini sevadilar. Ruhida bosh egmaslik mavjudligidanmi, nohaq bo'lsalar ham, mag'rur turishni yaxshi ko'radilar. Turklar tabiatan sabrlidirlar, hayot mashaqqatlarini mamnun holatda qarshi oladilar. Toza qalbli, ochiq so'zlidirlar. Hammaga yordam qo'lini cho'zishga harakat qiladilar. Nomusli va ishonchli xalq ekanliklarini, berilgan omonatlarga hech qachon xiyonat qilmaganliklarini bot-bot tilga oladilar.

Shu bilan bir qatorda, turklar oila va qarindosh-urug' rishtalariga alohida ahamiyat beradilar. Urf-odat va an'analariga sadoqatli, qonun va nizomlarga bo'ysinuvchandirlar. San'atni va musiqani sevadilar. Necha asrki, qahramonliklarni, sevgi va muhabbatni, hayot zavqi va go'zalliklarini tarannum etuvchi o'zlariga xos turkulari ular ijrosida jarang sochadi. Ularning shu qadar go'zal an'anaviy xalq raqslari borki, bir paytning o'zida bir-biriga butkul notanish sanalgan yuzlab kishilar bir joyda bir xil holatda raqsga tushishlarining guvohiga aylanishingiz mumkin.

Turkiyada sharqona, g'arbona va turkona madaniyat bir-biriga qorishib ketgan desak yanglishmaymiz. Istanbul, Anqara, Izmir kabi yirik madaniyat markazi sanalmish shaharlari bilan Onado'li qishloqlari o'rtasida hayot tarzi sezilarli darajada farqlidir. Aziz Nesin yozganiday turkiyaliklar: "Joyiga qarab Qorachao'g'londir, Go'ro'g'lidir. O'rni kelganida esa, Pir Sultondir, Yunus Emrodir".

Turk xalqi mentaliteti haqidagi ushbu so'zlarimiz nisbiy bo'lib, ba'zi jihatlarnigina qamrab olgan.

## TURKIYADA FUQAROLIK VA MEHNAT QILISH HUQUQI

### Fuqarolik va ro'yxatdan o'tish

Biz sizga ma'lumot sifatida taqdim etayotgan, Turkiya qonunchiligining muhim bandlaridan olingan quyidagi qisqacha izohlar sizning ushbu mamlakat hududidagi faoliyatingiz, erkinlik va huquqlaringiz dahlsizligini hamda muvaffaqiyatingizni ta'minlashga xizmat qiladi. Albatta, kishi o'z haq-huquqlarini tushunib, shunga mos harakat qilgandagina ko'zlagan maqsadiga erishadi, yo'lidagi muammolarni to'g'ri hal etadi. Mazkur ma'lumotlar Turkiya qonunchiligining internet sahifasi "e-Mevzuat" (https:/ / www.mevzuat.gov.tr/ <https://www.mevzuat.gov.tr/>)dan olindi.

Turkiya Respublikasining 6458-sonli "Chet elliklar va xalqaro himoya qonuni" ("Yabancılar ve Uluslararası Koruma Kanunu") 2013-yil 11-aprel-

da qabul qilingan va rasmiy gazetaning 28615-sonida nashr etilgan. Qonunga ko'ra, Ichki Ichlar vazirligiga qarashli Migratsiya markaziy boshqarmasi (İç işleri Bakanlığına bağlı Göç İdaresi Genel Müdürlüğü) tashkil qilingan.

Migratsiya markaziy boshqarmasi migratsiyaga doir ijtimoiy-siyosiy boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish hamda amalga oshirish faoliyatini olib boruvchi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. U, shuningdek, xorij fuqarolarining Turkiyaga kirishlari, Turkiyada qolishlari, Turkiyadan chiqishlarini va Turkiya hududidan chiqarib yuborish ishlari bilan bir qatorda xalqaro himoya qilish, vaqtinchalik himoya qilish hamda odam savdosiga aloqador ish va hujjatlarni rasmiylashtirish bilan shug'ullanadi.

Turkiyaga kirish, viza va yashash uchun ruxsatnoma olish bilan bog'liq masalalar mazkur qonunning birinchi, ikkinchi va uchinchi bo'limlarida yoritilgan.

Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasi hududiga kirishidan maqsadi nima ekanligiga ko'ra turli shakldagi viza beriladi. Ular diplomatik, xizmatga oid, odatiy, tranzitga oid va vaqtinchalik istiqomat qilish uchun beriladigan vizalardir. Tranzitga oid viza chet el fuqarosiga o'n besh kungacha bo'lgan muddatga beriladi. Turkiyada istiqomat qilish ruxsatnomasini olish 90 kundan ko'proq qolishni rejalashtirgan chet ellik, shu jumladan, o'zbekistonlik fuqarolar uchun majburiydir.

"Chet elliklar va xalqaro himoya qonuni"ning 7-moddasi "b" bandiga ko'ra, 2015-yilning 1-yanvar sanasidan e'tiboran, Turkiya Respublikasi hududida chet ellik fuqarolar "Viza, vizaga tobe emaslik yoki istiqomat ruxsatnomasi muddati tugashiga kamida 60 kunlik muddat qolganida amaldagi pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi haqiqiy hujjat"ni o'zlari bilan birga olib yurishlari shartdir.

Mazkur Qonunning 2-moddasiga ko'ra, Qonunning tatbiq etilishi hamkorlik aloqalari o'rnatilgan davlatlar bilan belgilangan tartibga binoan, xalqaro shartnomalar bandlariga muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Istiqomat qilish ruxsatnomasi (İkamet izni belgesi) Turkiya Respublikasi Migratsiya markaziy boshqarmasiga qarashli "Chet elliklar bo'limi" (Yabancılar Şubesi) tomonidan beriladi.

Turkiyada 2003-yilning 27-fevralida qabul qilingan 4817-sonli "Chet el fuqarolarining mehnat qilishlariga ruxsat berish haqidagi qonun" rasmiy gazetada 2003-yilning 6-martida e'lon qilingan. Ushbu olti bo'limdan tashkil topgan Qonunning qabul qilinishidan maqsad chet el fuqarolari-

ning Turkiyada mehnat qilishlarini tartibga solish va chet el migrantlariga beriladigan mehnat qilish huquqining asoslarini belgilashdan iboratdir.

Agar xorij fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vakolatxonalariga yoki idoralariga mehnat qilish ruxsat(nomas)i yoki mehnat qilish vizasi olish uchun murojaat qilsa, unga Turkiya Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hujjatlar rasmiylashtirilib, mehnat qilish uchun ruxsatnoma yoki viza berilishi mumkin. Bu holat xorijiy davlatlarning konsullik idoralari xodimlari va diplomatik ishlar bo'yicha vakillariga, xalqaro va hukumatlararo tashkilot xizmatchilari va ularning oila a'zolariga joriy qilinmaydi.

Chet el fuqarosi viza mavjud bo'lgan yoki vizaga tobe bo'lmagan holda, shaxsini tasdiqlovchi haqiqiy hujjatlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa o'zi yashab turgan davlatning tegishli organlari tomonidan berilgan maxsus hujjatlar bilan Turkiya hududiga kirishi va u yerdan chiqishi mumkin.

Turkiya Respublikasida istiqomat qilish huquqini olgan chet el fuqarosining ushbu mamlakat hududiga kirishi va chiqishi amaldagi shaxsini tasdiqlovchi va xuddi shu mazmundagi Turkiya Respublikasi tomonidan tasdiqlangan (tan olingan) hujjatlar, istiqomat uchun berilgan guvohnoma orqali amalga oshiriladi.

Turkiya Respublikasida istiqomat qilish huquqini olgan fuqaroligi bo'lmagan shaxsning mazkur davlat hududiga kirishi va chiqishi istiqomat uchun berilgan guvohnoma bo'yicha amalga oshiriladi.

Istiqomat qilish ruxsatnomasini olish uchun dastlabki murojaat Turkiya Respublikasi Migratsiya markaziy boshqarmasiga qarashli "Chet elliklar bo'limi" (Yabancılar Şubesi)ning elektron internet sahifasi (https://e-ikamet.goc.gov.tr/ <https://e-ikamet.goc.gov.tr/>) orqali amalga oshiriladi. Istiqomat uchun ruxsatnoma "Chet elliklar bo'limi" (Yabancılar Şubesi)ning shahar va tuman bo'limlarida rasmiylashtiriladi. Shaxs mazkur bo'limlarga shaxsan murojaat qiladi. Xorij fuqarosi arizasiga ijobiy javob olsa, istiqomat uchun ruxsatnoma uning yashash manziliga xatjildda yuboriladi.

Istiqomat uchun berilgan arizada quyidagi ma'lumotlar aks etishi kerak: familiya, ism, otasi va onasining ismi (lotin alifbosida yozilgan bo'lishi kerak), tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsni tasdiqlovchi asosiy hujjatning raqami, Turkiya Respublikasi hududida turish uchun talab qilingan muddat, Turkiya Respublikasi hududiga kirish uchun berilgan davlat organi xulosasining raqami, istiqomat uchun ruxsatnoma olishdan maqsad, taklif qiluvchi tashkilot

(jismoniy shaxs) haqidagi ma'lumotlar, ruxsatnomaning (uzoq yoki qisqa muddat uchun) ekanligi, telefon raqami, elektron manzili va yashash joyi manzili.

Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasi hududiga kirishi va shu yerda yashashidan maqsadiga ko'ra odatdagi istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma uzoq yoki qisqa muddatga; ishga aloqador, o'qishga oid, ishlash uchun, oilaviy (turk fuqarosi bilan oila qurganlik) holatiga ko'ra beriladi.

Odatdagi istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma chet el fuqarosiga uch (olti, o'n ikki) oylik muddatga; odatdagi ishga aloqadorlik bo'yicha istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma chet el fuqarosiga bir yillik muddatga; odatdagi o'qishga oid istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma chet el fuqarosiga bir yillik muddatga; odatdagi oilaviy (turk fuqarosi bilan oila qurganlik) holatlar uchun ruxsatnoma chet el fuqarosiga bir yillik muddatga; odatdagi ishga aloqador istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma chet el fuqarosiga, ya'ni Turkiya Respublikasi hududiga mehnat faoliyati yuzasidan kelgan kishiga mehnat shartnomasida ko'rsatilgan muddatga ko'ra, bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi.

Agar Turkiya Respublikasida vaqtinchalik yashovchi shaxsga biror sababga ko'ra vaqtinchalik yashash uchun ruxsat berilmasa, yoki istiqomat qilish muddati uzaytirilmasa, shaxs belgilangan muddat ichida Turkiya Respublikasi hududidan chiqib ketishi kerak bo'ladi.

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs Turkiya Respublikasi hududida o'rnatilgan qonunlarni buzsa: amalda bo'lmagan hujjatlarni ishlatish, Turkiya Respublikasida tasdiqlangan vaqtinchalik yashash huquqini beruvchi va shunga o'xshash hujjatlarni yo'qotish hamda mazkur masala yuzasidan o'z vaqtida ijroiya hokimiyati hududiy organlariga tegishli ariza bilan murojaat qilmaslik, migratsion masalalari, vaqtinchalik yashash muddati tugasa-yu, mazkur mamlakatdan chiqishdan bo'yin tovlash, Turkiya Respublikasi orqali tranzit o'tish qoidalarini buzish holatlarida Turkiya Respublikasi qonunlariga binoan javobgarlikka tortiladi.

Jismoniy va yuridik shaxs, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Turkiya Respublikasi hududiga noqonuniy kirishiga yordam berish, Turkiya Respublikasi hududi orqali noqonuniy tranzit o'tish va Turkiya Respublikasi hududida noqonuniy yashash, shuningdek, transport va boshqa tashkilotlar tomonidan chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tashilishi, Turkiya Respublikasi hududiga kirish qonuniga ko'ra amal qilmaydigan hujjatlar va ularni noto'g'ri rasmiylashtirish Turkiya Respublikasi qonunchiligiga binoan javobgarlikka tortiladi.

## Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining huquqiy o'rni

Turkiya Respublikasida chet ellik fuqarolarning mehnat qilish, istiqomat qilish, ta'lim olish, turli ko'rinishdagi moddiy boylikka ega bo'lish kabi haq va huquqlari qonun bilan himoyalangan. Turkiya Respublikasi qonunchiligida "Chet elliklar va xalqaro himoya qonuni" ("Yabancılar ve Uluslararası Koruma Kanunu"), "Xalqaro ish kuchi qonuni" ("Uluslararası İş gücü Kanunu"), "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonun" ("Doğrudan Yabancı Yatırımlar Kanunu") va "Chet el fuqarolariga ikkinchi qo'l (foydalanilgan) transport vositalarini sotish to'g'risidagi qonun" ("Yabancılara İkinci El Taşıt Satışı Hakkında Kanun") kabi bir qator qonunlar, shu bilan birga, tegishli nizom, qo'llanma va ko'rsatmalar mavjud. Chet ellik fuqarolar huquqi "Fuqarolik to'g'risidagi huquq" ("Vatandaşlık Hukuku"), "Shirkatlar to'g'risidagi huquq" ("Şirketler Hukuku"), "Eksport va import to'g'risidagi huquq" ("İhracat ve İthalat Hukuku"), "Oila to'g'risidagi huquq" ("Aile Hukuku"), "Meros to'g'risidagi huquq" ("Miras Hukuku"), "Mehnat to'g'risidagi huquq" ("İş Hukuku"), "Turizm targ'iboti to'g'risidagi huquq" ("Turizm Teşvik Hukuku") kabi ko'pgina huquqiy yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq.

Mazkur qonunlar Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining huquqiy o'rnini belgilab beradi. Bu qonunlar, avvalo, Turkiyadagi "nolegal" sanalgan kishilarning "vaqtinchalik yashash uchun ruxsat", "Turkiya Respublikasida xorij fuqarosining qonuniy joylashuvi" singari migratsiya huquqiga oid tushunchalarni anglashga qaratilgan. Ularning barchasi Turkiyada chet el fuqarosining o'rnini belgilab, bu boradagi ishlarni tartibga soladi.

## Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida qonuniy joylashuvi

Shaxsning istiqomat uchun guvohnomasi amalda bo'lsa; yoki vaqtinchalik yashashga ruxsat olgan bo'lsa; yoki vizasi bo'lsa; yoki mehnat qilish haqidagi ruxsatnomasi bo'lsa; yoki Turkiya Respublikasi hujjatlari xalqaro shartnomalari va boshqa qonunlarda ko'rsatilgan bo'lsa, bu hujjatlar unga Turkiya Respublikasida yashash huquqini beradi.

Mazkur hujjatlar chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida yashashi uchun uchta huquqiy holatni ifodalaydi: vaqtinchalik Turkiya hududida bo'lish, vaqtinchalik yashash, doimiy yashash.

Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida vaqtinchalik bo'lish muddati ushbu mamlakat tartiblariga ko'ra, viza olishni talab qilmagan holda to'qson sutkadan oshmasligi kerak.

Turkiya Respublikasida vaqtinchalik yashovchi chet el fuqarosi muddat tugagach, mamlakatdan chiqib ketishi shart. Amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlarga binoan undan zaruriy hujjatlar qabul qilinib, istiqomat qilish haqidagi ruxsatnomasining amal qilish muddati, yoki vaqtinchalik qolish muddati uzaytirilishi, yoxud yangi istiqomat qilish haqidagi ruxsatnoma, vaqtinchalik yashash uchun ruxsat berilishi mumkin.

Chet el fuqarosi istiqomat qilish muddatini uzaytirish talabi haqidagi murojaati istiqomat muddati nihoyasiga yetmasidan oldin amalga oshirilishi shart. U istiqomat qilish muddatini uzaytirish uchun tegishli ishlar bo'yicha ijroiya hokimiyati organining hududiy bo'limiga quyidagilarni topshiradi:

* istiqomat qilish muddatini uzaytirish uchun ruxsat berilishi so'ralgan ariza;

* chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi pasporti hamda Turkiya Respublikasi tomonidan aynan shu sifatda qabul qilingan hujjati;

* 4 ta 35x45 mm hajmdagi fotosurat;

* chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida qoladigan muddat uchun yashashiga yetadigan va muayyan moddiy imkonga ega ekanligini ifodalovchi bayoni va buni tasdiqlovchi ma'lumotnoma;

* amaldagi sog'liq sug'urtasi;

* istiqomat qilish muddatini uzaytirish uchun davlat boji to'langanligi haqidagi kvitansiya.

Chet el fuqarosining istiqomat qilish muddatini uzaytirish uchun yozgan arizasi qabul qilinsa, istiqomat qilish ruxsatnomasi murojaat qilgan shaxsning yashash manziliga pochta orqali xatjildda jo'natiladi. Shu sababli yashash manzili batafsil va xatosiz yozilishi talab qilinadi.

Istiqomat qilish ruxsatnomasi uchun murojaat qilinganida shaxsga "Murojaat qilganlik haqidagi ruxsatnoma" (Müraacat belgesi) beriladi. Bu ruxsatnoma istiqomat qilish muddati tugagan bo'lsa ham, shaxsga talabi uchun javob olishigacha Turkiyada qonuniy ravishda qolish huquqini beradi.

Shaxs har doim istiqomat qilish ruxsatnomasini yonida olib yurishi kerak.

Ruxsatnoma faqatgina shaxsning Turkiya Respublikasi hududida yashashi uchun ma'lum muddatga beriladi. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu ruxsatnoma shaxsga ishlash yoki ishga kirish huquqini bermaydi. Ishlash

uchun bu ruxsatnoma bilan birga "Ish uchun ruxsatnoma" (Çalışma izni belgesi) olinishi kerak bo'ladi.

Chet el fuqarosining istiqomat qilish muddatini uzaytirish haqidagi arizasi quyidagi holatlarda rad etiladi:

* Turkiya Respublikasi konstitutsion tuzumiga va uning konstitutsiyasiga zo'ravonlik bilan o'zgartirishga harakat qilgan bo'lsa;
* terroristik (ekstremistik) aktlarni rejalashtirish, ularni moddiy ta'minlash, qo'llab-quvvatlashda ishtirok etgan bo'lsa;
* shaxsi haqidagi va boshqa soxta hujjatlar taqdim etgan bo'lsa;
* sud hukmiga ko'ra og'ir jinoyat yoki xavfli deb topilgan jinoyatning takrorlanishi bo'yicha hukm qilingan bo'lsa;
* Turkiya Respublikasi hududida yoki undan tashqarida og'ir jinoyat sodir etganlik, sudlanganlik, qonunlarga muvofiq javobgarlikka tortilganlik.

## Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma va hujjatlar

Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi hujjatiga uning pasporti yoki Turkiya Respublikasi xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan shu toifadagi chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma kiradi.

Turkiya Respublikasida fuqaroligi bo'lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1) o'z mamlakatida berilgan hujjat va Turkiya Respublikasining xalqaro shartnomalarida xuddi shu toifada qabul qilingan fuqaroligi bo'lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma;

2) vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma;

3) istiqomat uchun guvohnoma;

4) qonunlarda ko'rsatilgan yoki Turkiya Respublikasi xalqaro shartnomalarida fuqaroligi bo'lmagan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma sifatida qabul qilingan boshqa hujjatlar.

## Chet el fuqarosining huquqiy holati

Turkiya Respublikasida chet el fuqarosining huquqiy holati Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida Turkiya Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilanadi.

## Vaqtinchalik yashash uchun ruxsat

Istiqomat uchun guvohnoma. Quyidagi holatlarda chet el fuqarosiga Turkiya Respublikasi hukumati tomonidan vaqtinchalik yashashga qaydsiz (uchyotsiz) ruxsat berilishi mumkin:

* Turkiya Respublikasi hududida tug'ilgan bo'lsa;
* Turkiya Respublikasi fuqaroligida bo'lgan va shu yerda yashovchi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan va ishga layoqatsiz farzandi bo'lsa;
* Turkiya Respublikasi fuqaroligida bo'lgan va shu yerda yashovchi otasi yoki onasi mehnatga layoqatsiz bo'lsa;
* Turkiya Respublikasida istiqomat qilish joyi bo'lgan turkiyalik bilan nikohdan o'tgan bo'lsa;
* Turkiya Respublikasi hukumati tomonidan belgilab qo'yilgan ko'lamda investitsiya mablag'i bo'lsa;
* Turkiya Respublikasiga Turkiya Respublikasi bilan hamkorlikda bo'lgan davlatning biror dasturi bo'yicha ixtiyoriy ko'chirilgan shaxs va uning oilasiga;
* qonunlarda ko'rsatilgan va boshqa hollarda.

Chet el fuqarosi (fuqaroligi bo'lmagan shaxs)ga migratsiya xizmati hududiy organ tomonidan vaqtinchalik yashashga ruxsat beriladi.

Ariza Turkiya Respublikasi ichki ishlar vazirligi tasdiqlagan shakldagi blankadan iborat bo'ladi. Blanka turk tilida yoziladi. Ilk murojaat mazkur organning maxsus internet sahifasi (https:/ / e-ikamet.goc.gov.tr/ <https://e-ikamet.goc.gov.tr/>) orqali amalga oshiriladi va ariza kompyuterda to'ldiriladi.

Ariza qisqartma so'zlar va abbreviatura bilan yozilsa, qabul qilinmaydi. Blankadagi savollarga to'liq javob berish talab etiladi.

## Mehnat qilish huquqi

2013-yil 27-fevralda qabul qilingan 4817-sonli "Chet el fuqarolarining mehnat qilishlariga ruxsat berish haqidagi qonun"da chet el fuqarosining mehnat qilish huquqi va xorij fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga ishlash uchun ruxsat berish tartibi belgilab berilgan.

Chet el fuqarosining mehnat munosabatlarida ishtirok etish shartlari. Chet el fuqarosi amaldagi qonunlarda ko'rsatilgan o'z salohiyatidan erkin foydalanish va kasbiy faoliyatni erkin tanlash huquqiga ega.

Turkiya Respublikasida "Ish uchun ruxsatnoma" ("Çalışma izni") korxona va tashkilot ishlari hamda uy ishlari sifatida tasniflanib, ikkiga ajratiladi.

Ish va buyurtma beruvchi chet el fuqarosini faqat ishga jalb qilish va foydalanishga ruxsatnomasi mavjud bo'lgandagina uni ishga jalb qilishi va undan foydalanishi mumkin.

Chet el fuqarosi ishlashga ruxsati bo'lgandagina mehnat faoliyatini amalga oshiradi. Ko'rsatilgan tartib quyidagi chet el fuqarolariga tatbiq qilinmaydi:

* Turkiya Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarga;

* Turkiya Respublikasida vaqtinchalik yashovchi shaxslarga;

* diplomatik vakolatxona xizmatchilari, Turkiya Respublikasida xorijiy davlat konsullik idorasi ishchilari, xalqaro organlar ishchilari, shuningdek, ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy uy xizmatchilariga;

* huquqiy shaxs maqomidagi chet el tashkilotlari xizmatchilari, montaj ishlarini bajaruvchilar, servis (aholiga xizmat ko'rsatish) va kafolatlangan xizmatlar, shuningdek, kafolatlangan ta'mirdan so'ng Turkiya Respublikasiga texnik uskunalarni yetkazib beruvchilarga;

* Turkiya Respublikasiga vakil sifatida yuborilgan (akkredatsiyadan o'tgan) jurnalistlarga;

* Turkiya Respublikasi maorif muassasalarida ta'lim oluvchi va ta'til davomida ishlovchilarga;

* Turkiya Respublikasida maorif muassasalarida ta'lim oluvchi va darsdan bo'sh vaqtlarda ta'lim olayotgan o'quv yurtlarida o'quvchi-yordamchi sanalgan shaxslarga.

Turkiya Respublikasida vaqtinchalik yashovchi xorij fuqarosi mehnat faoliyatini Turkiya Respublikasi subyektidan, unga vaqtinchalik yashash uchun ruxsat berilgan hududdan tashqarida amalga oshirishga haqli emas.

Turkiya Respublikasiga chet el fuqarosini turli mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida mamlakatga kirish uchun chaqirish. Turkiya Respublikasi hukumati har yili chet ellik ishchilarni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jarayonlarda chet ellik ishchilar kuchidan foydalanish samarasini hisobga olib, ehtiyojga ko'ra jalb qiladi.

Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida bo'lish, yashash va ishlash uchun ruxsatnoma olish tartibi. Chet el fuqarosining Turkiya Respublikasida bo'lish, yashash va ishlash uchun ruxsatnoma olishi navbati bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bunga ko'ra, Turkiyada ishlamoqchi bo'lgan chet el fuqarosi:

* ish uchun ruxsatnoma (Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligidan);

* ish vizasi (Turkiyaning chet el vakolatxonalaridan);

* ish maqsadda istiqomat qilish ruxsatnomasi (Ichki ishlar vazirligiga qarashli Migratsiya markaziy Boshqarmasiga tegishli "Chet elliklar bo'limi" (Yabancılar Şübesi)ning shahar yoki tuman bo'limidan) olishi kerak bo'ladi.

Ish uchun ruxsatnoma olish ikki tartibda amalga oshiriladi:

1. Tashqaridan (Turkiya Respublikasi hududiga kirmasdan turib);

2. Ichkaridan (Turkiya Respublikasi hududiga kirgan holda).

Chet el fuqarosi Turkiyaning chet el vakolatxonalariga "Ish vizasi" ("Çalışma vizesi") olish uchun murojaat qilganida, mazkur murojaatga muvofiq ish beruvchining chet ellik fuqaroni ish bilan ta'minlash haqidagi hujjatini, viza murojaati blankasini va pasportini ko'rsatishi yetarlidir.

Ushbu murojaatdan keyin uzog'i o'n ish kuni ichida ish beruvchi Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi (Çalışma ve Sosyal Güvenlik Bakanlığı)ga vazirlik tomonidan talab qilingan hujjatlar bilan birga murojaat qilishi kerak. Bu hujjatlar vazirlikning internet sahifasi (http:/ / www.csgb.gov.tr/ )da <http://www.csgb.gov.tr/)da> to'liq ko'rsatilgan.

Ishlashga ruxsat olish uchun ariza beruvchi shaxs quyidagilarni taqdim etadi:

* 30x40 hajmdagi fotosurat;

* kasbga oid ma'lumoti haqidagi hujjatning nusxasi, ixtisosligi yoki kasbga oid ma'lumoti haqidagi Turkiya diplomiga teng qiymatli ma'lumotnoma;

* ariza beruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat.

Agar hujjatlar boshqa chet tilida tayyorlangan bo'lsa, ularning turk tiliga tarjima qilingan varianti notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Agar hujjatlarning nusxasi bilan birga asl nusxasi ko'rsatilmasa, ular ham notarial tasdiqlangan bo'lishi shart.

Vazirlik hujjatlarni tekshiradi va ishga ruxsat berish yoki bermaslik haqidagi natijani 30 ish kuni ichida ma'lum qiladi. Har bir arizaga alohida qaror chiqariladi.

Vazirlik ruxsat berish haqida qaror chiqqan kundan boshlab 10 kun mobaynida ruxsat berilganligini ma'lum qiladi. Agar ruxsat berilmagan bo'lsa, uning sabablari ko'rsatilgan yozma shakldagi javob taqdim etiladi.

Ishlashga ruxsat berish quyidagi shartlarga ko'ra beriladi:

a) chet el fuqarosi 18 yoshga to'lgan bo'lsa;

b) ish beruvchining chet el fuqarosini mehnat faoliyatiga jalb qilishi belgilab qo'yilgan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma talablariga zid kelmagan holda.

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

Y-9093/1

Turkiya Respublikasining 5683-sonli "Chet elliklarning istiqomat va sayohatlari to'g'risidagi qonun"ining 3-moddasiga muvofiq, ish vizasini olgan yoki ish vizasini olgan holda Turkiyaga kelgan chet ellik fuqarolar kechi bilan bir oy ichida va ish boshlashidan oldin Ichki ishlar vazirligiga qarashli Migratsiya markaziy boshqarmasiga tegishli "Chet elliklar bo'limi"(Yabancılar Şübesi)ning shahar yoki tuman bo'limlariga shaxsan murojaat qilishlari kerak.

Har bir chet el ishchisiga ishlash uchun berilgan ruxsatni ish beruvchi oladi.

Chet el fuqarosi ishlash uchun berilgan ruxsatnomani yo'qotib qo'ysa, 10 kun muddat ichida vazirlikka ishlash uchun olingan ruxsatnomani yo'qotib qo'yganligini bildirishi shart.

2016-yildan e'tiboran Turkiya hududida istiqomat qilayotgan chet ellik fuqarolarning quyidagi kasblarda faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi:

* stomatologiya bo'yicha mutaxassis, tish doktorligi; akusherlik va sanitarlik;
* dorishunoslik, farmatsevtlik;
* baytarlik (veterinar);
* xususiy shifoxonalarda mas'ul xodimlik;
* kema ekipajiga kapitanlik; baliq, ustritsa, midiya, inju, marvarid, marjon eksportchiligi; g'avvoslik, (dafina, xazina) izlovchilik, paroxod boshqaruvchiligi, kotiblik, matroslik;
* advokatlik;
* notariuslik;
* bojxona maslahatchiligi;
* xususiy yoki davlat muassasalarida xavfsizlik xizmati xodimligi.

## TURK TILIDA SO'ZLASHUV

### Chegarada / Sınırda

| | | |
|---|---|---|
| Mana, mening pasportim | / | İşte, benim pasaportum |
| Men ... fuqarosiman | / | Ben ... vatandaşıyım |
| Bolalarim haqidagi ma'lumot xotinimning pasportiga yozilgan | / | Çocuklarımla ilgili bilgiler karımın pasaportunda yazılıdır |
| Viza | / | Vize |
| Mening vizam... | / | Benim vizem ... |
| ... tranzitga oid | / | ... transitle ilgili |
| ... kirishga oid | / | ... girişle ilgili |
| ... ko'p martalik | / | ... çok seferlik (çok girişli) |
| Men ... maqsad(i)da chiqyapman | / | Ben ... amaçlı(-la) çıkıyorum |
| ... ish ... | / | ... iş ... |
| ... sayohat... | / | ... gezi ... |
| ... shaxsiy ... | / | ... kişisel ... |
| Mening taklifnomam bor | / | Benim davetiyem var |
| Mana bu blankani to'ldirishimga yordam bera olasizmi? | / | İşte bu formu doldurmama yardım edebilir misiniz? |
| Mana mening yuklarim | / | İşte benim bagajım |
| Faqat shaxsiy buyumlarim bor | / | Sadece kişisel eşyalarım var |
| Bunga boj to'lanadimi? | / | Buna vergi ödeniyor mu? |
| Ozgina sovg'alar (esdalik buyumlar) bor | / | Azıcık hediyeler (hatıra eşyaları) var |
| Qanday boj to'lashim kerak? | / | Nasıl vergi ödemem gerekiyor? |
| Menda ... dollar (marka, funt, frank) bor | / | Bende ... dolar (mark, pound, frank) var |
| Men o'zim bilan ... olganman | / | Ben kendimle ...götürüyorum |
| ... bir blok sigaret... | / | ...bir karton sigara... |

## Poyezdda / Trende

| | | |
|---|---|---|
| Jadval bilan qayerda tanishishim mumkin? | / | Hareket tarifesini nereden öğrenebilirim? |
| ...-gacha qaysi poyezdlar qatnaydi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) kadar hangi trenler gidiyor? |
| ...-ga poyezd qachon yetib boradi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) tren ne zaman varıyor? |
| ...-gacha to'g'ri boradigan poyezd bormi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) kadar aktarmasız (direk) tren var mı? |
| ...-ga borish uchun qayerda peresadka qilishim kerak? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) kadar gitmek için nerede aktarma yapmam gerekiyor? |
| Jo'nashdan necha kun oldin chipta sotib olish mumkin? | / | Gitmeden kaç gün önce bilet satın alınabilir? |
| ... nomerli poyezd qachon jo'naydi? | / | ... numaralı tren ne zaman kalkıyor? |
| ... nomerli poyezd qaysi yo'ldan jo'naydi? | / | ... numaralı tren hangi yoldan hareket ediyor? |
| ... nomerli poyezd qachon keladi? | / | ... numaralı tren ne zaman geliyor? |
| ... nomerli poyezd qaysi platformaga keladi? | / | ... numaralı tren hangi perona geliyor? |
| ... nomerli platformaga qanday borish mumkin? | / | ... numaralı perona nasıl gidilir? |
| Chipta kassasi qayerda? | / | Bilet gişesi nerede? |
| Omonatlarni saqlash xonasi ...? | / | Emanet (Emanet eşya) odası ...? |
| Ona va bolalar xonasi ...? | / | Anne ve çocuklar odası ...? |
| Tibbiyot xona ...? | / | Acil yardım ...? |
| Bufet ...? | / | Büfe ...? |
| Militsiya bo'limi ...? | / | Polis departmanı ...? |
| Kutish zali ...? | / | Bekleme salonu ...? |
| Chiptalarni oldindan sotish kassasi ...? | / | Biletleri önceden satış gişesi...? |
| ... nomerli poyezd jadval bo'yicha kelyaptimi yo kechikyaptimi? | / | ... numaralı tren tarifeye uygun olarak mı geliyor yoksa rötarlı mı? |

| | | |
|---|---|---|
| ... nomerli poyezd necha daqiqa (soat)ga kechikadi? | / | ... numaralı tren kaç dakika (saat) rötarlı? |
| ...-ga boradigan poyezd qachon bo'ladi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) bir sonraki tren ne zaman? |
| ...-gacha kupeli (platskartali) vagon chiptasi necha pul turadi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) kadar yataklı (örtülü kuşetli) vagon biletinin fiyatı ne kadardır? |
| Iltimos, ...-gacha kupeli vagonga bitta (ikkita) chipta bering | / | Lütfen ...-a (-e, -ya, -ye) kadar yataklı vagon için bir (iki) bilet verin |
| Kupeli vagonga chipta bo'lmasa, platskartali vagonga bering | / | Yataklı vagona bilet yoksa örtülü kuşetli vagona verin |
| Iltimos, menga ...-gacha ... nomerli poyezdga chipta bering | / | Lütfen bana ...-a (-e, -ya, -ye) kadar ... numaralı trene bilet verin |
| Iltimos, menga pastki (yuqorigi) joydan bering | / | Lütfen bana üst (alt) kuşetten verin |
| Bu to'g'ri boradigan poyezdmi? | / | Bu aktarmasız (direk) tren midir? |
| Chipta necha sutka uchun amal qiladi? | / | Bilet kaç gün geçerlidir? |
| Bu ... nomerli platformami? | / | Bu ... numaralı peron mudur? |
| Bu ...-ga boradigan poyezdmi? | / | Bu ...-a (-e, -ya, -ye) giden tren midir? |
| Bu poyezd qayoqqa boradi? | / | Bu tren nereye gidiyor? |
| Bu poyezd qayoqdan keldi? | / | Bu tren nereden geldi? |
| ... nomerli poyezdga chiqish e'lon qilindimi? | / | ... numaralı trene biniş duyuruldu mu? |
| Bu ... nomerli vagonmi? | / | Bu ... numaralı vagon mudur? |
| Poyezdning jo'nashiga necha daqiqa qoldi? | / | Trenin kalkmasına kaç dakika var? |
| Poyezdga chiqish e'lon qilindi | / | Trene biniş duyuruldu |
| Bu ... nomerli poyezd (... nomerli vagon) | / | Bu ... numaralı tren (... numaralı vagon) |
| ... nomerli vagon poyezdning boshida (o'rtasida, oxirida) joylashgan | / | ... numaralı vagon, trenin başında (ortasında, sonunda) bulunur |

| | | |
|---|---|---|
| Mana, mening chiptam | / | İşte benim biletim |
| Mening joyim qaysi kupeda? | / | Benim yerim hangi kompartımanda? |
| Mening joyim yuqoridami yoki pastdami? | / | Benim yerim üstte midir yoksa altta mıdır? |
| Bu joy bo'shmi yoki bandmi? | / | Bu yer boş mu yoksa dolu mu? |
| Iltimos, o'rin-ko'rpa (adyol, bir stakan choy, gazeta va jurnallar) olib keling | / | Lütfen yatak yorgan (battaniye, bir bardak çay, gazete ve dergiler) getirin |
| Siz qaysi stansiyada tushasiz? | / | Siz hangi istasyonda iniyorsunuz? |
| Siz ham ...-gacha borasizmi? | / | Siz de ...-a (-e, -ya, -ye) kadar mı gidiyorsunuz? |
| ...-da siz ham tushasizmi? | / | Siz de ...-da (-de, - ta, -te) iniyor musunuz? |
| Biz siz bilan hamrohmiz | / | Biz sizinle yol arkadaşıyız |
| Men radioni qo'ysam (o'chirsam, chiroqni yoqsam, derazani yopsam, bu yerga narsalarimni qo'ysam) e'tiroz bildirmaysizmi? | / | Benim radyoyu açmamın (kapatmamın, ışığı açmamın, kapıyı kapatmamın, eşyalarımı buraya koymamın) sizin için bir sakıncası var mıdır? |
| Men kiyimimni o'zgartirmoqchiman | / | Ben kıyafetimi değiştireceğim |
| Keyingisi qanaqa stansiya? | / | Bir sonraki istasyon neresidir? |
| Bu stansiyaning nomi nima? | / | Bu istasyonun adı nedir? |
| Bu yerda poyezd necha daqiqa turadi? | / | Burada tren kaç dakika duruyor? |
| Vagon-restoran qayerda (joylashgan)? | / | Yemek vagonu (kafeterya) nerededir? |
| Poyezd jadval bo'yicha ketyaptimi yoki kechikyaptimi? | / | Tren tarifeye göre mi gidiyor yoksa rötarlı mı? |
| Iltimos, ...-ga yetish oldidan meni uyg'otib qo'ya olasizmi? | / | Lütfen ...-a (-e, -ya, -ye) varmadan önce beni uyandırabilir misiniz? |
| Iltimos, o'rin-ko'rpa va choy uchun haq oling | / | Lütfen yatak yorgan ve çayın ücretini alın |

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, chiptalaringizni ko'rsating | / | Lütfen biletlerinizi gösterin |
| Sizning biletingiz ... nomerli vagonga olingan | / | Sizin biletiniz . . . numaralı vagon için alınmıştır |
| Sizning kupengiz vagonning boshida (o'rtasida, oxirida) | / | Sizin kompartımanınız vagonun başında (ortasında, sonunda)dır |
| Sizning joyingiz yuqorida (pastda) | / | Sizin yeriniz üstte (altta) |
| Poyezd besh daqiqadan so'ng jo'naydi | / | Tren beş dakika sonra kalkıyor |
| Poyezdning jo'nashiga 10 daqiqa qoldi | / | Trenin kalkmasına on dakika var |
| Iltimos, joylaringizni egallang | / | Lütfen yerlerinize oturun |
| Kuzatuvchilar vagonlarni bo'shatishlarini so'raymiz | / | Yolcu yakınlarının vagonları terk etmesini rica ediyoruz |
| Poyezdning to'xtab turish muddati qisqartirilgan | / | Trenin duraklama süresi kısaltılmıştır |

## Aëroportda / Hava alanında

| | | |
|---|---|---|
| ...-ga samolyotlar qaysi kunlari uchadi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) uçaklar hangi günler uçuyor? |
| ...-ga keyingi samolyot qachon bo'ladi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) bir sonraki uçak ne zaman olacak? |
| ... nomerli reys qachon jo'naydi? | / | ... sefer sayılı uçuş ne zaman kalkıyor? |
| ...-ga necha soat uchiladi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) kaç saat uçuluyor? |
| ...-ga samolyot qachon keladi? | / | ...-a (-e, -ya, -ye) uçak ne zaman geliyor? |
| Samolyot yo'lda qo'nib o'tadimi? | / | Uçak yolda aktarma yapar mı? |
| Sizda ... nomerli reysga bilet bormi? | / | Sizde . . . sefer sayılı uçuş için bilet var mıdır? |
| Necha kilogrammgacha bepul yuk olishga ruxsat etiladi? | / | Kaç kiloya kadar ücretsiz bagaj götürmeye izin veriliyor? |

Ortiqcha yuk uchun necha pul to'lashim kerak? / Fazla bagaj için ne kadar para ödemem gerekiyor?

Aeroportga qanday borish mumkin? / Hava alanına nasıl gidilir?

... nomerli reysga qayerda ro'yxatdan o'tiladi? / ... sefer sayılı uçuş için bilet kaydı nerede yapılıyor?

... nomerli reysga qayerdan chiqiladi? / ... sefer sayılı uçağın biniş yeri nerede?

... nomerli reysga chiqish qachon boshlanadi? / ... sefer sayılı uçağa biniş ne zaman başlayacak?

Iltimos, mening joyimni ko'rsating / Lütfen benim yerimi gösterin

Biz qancha balandlikda uchyapmiz? / Biz ne kadar yükseklikte uçuyoruz?

Biz qanday tezlikda uchyapmiz? / Biz ne kadar hızla uçuyoruz?

Uchish necha soat davom etadi? / Uçuş kaç saat sürecek?

Birinchi qo'nib o'tish qayerda bo'ladi? / İlk aktarma nerede olacak?

Men uchish paytida o'zimni yomon his qilaman / Ben uçarken kendimi kötü hissediyorum

Mening qulog'im bitib qoldi / Benim kulağım tıkanıverdi

Iltimos, menga mineral suv (meva suvi, gigiyena paketi) bering / Lütfen bana maden suyu (meyve suyu, hijyenik paket) verin

Yukni qayerdan olish mumkin? / Bagaj nereden alınabilir?

Bitta chiptaga ... kg bepul yuk olish mumkin / Tek biletle . . . kg ücretsiz bagaj götürülebilir

Ortiqcha yukingiz uchun siz ... so'm to'lashingiz kerak / Fazla bagajınız için ... lira ödemeniz gerekiyor

Bu narsalarni bagajga topshirishimiz kerak / Bu eşyaları bagaja vermemiz gerekiyor

... nomerli reysga chiptalar registratsiyasi ... (i)nchi zalda o'tkaziladi / ... sefer sayılı uçuş biletlerinin kaydı ... numaralı salonda yapılacaktır

... nomerli Istanbul-Toshkent reysiga chiqish boshlanadi / ... sefer sayılı İstanbul-Taşkent uçuşu için uçağa biniş başlayacaktır

| | | |
|---|---|---|
| Ob-havo yomonligi tufayli № ... reys qoldiriladi | / | Hava durumu kötülüğü nedeniyle ... sefer sayılı uçuş iptal edildi |
| Tasmalar(ingiz)ni bog'lab oling | / | Emniyet kemerler(iniz)i bağlayın |
| Uchish vaqtida chekish man qilinadi | / | Uçuş sırasında sigara içmek yasaktır |
| Uchish ... metr balandlikda soatiga ... km tezlikda o'tyapti | / | Uçuş ... metre yükseklikte saatte ... km hızla gerçekleşmektedir |
| Samolyot qo'nish uchun pastlab boryapti | / | Uçak iniş için alçalıyor |
| Yuklarni bagaj bo'limidan olish mumkin | / | Bagajlar bagaj bölümünden alınabilir |

## Ko'chada / Sokakta

| | | |
|---|---|---|
| Sizdan, iltimos, ...-ga qanday borishimni aytolmaysizmi? | / | Sizden rica etsem ...-a (-e, -ya, -ye, -na, -ne) nasıl gideceğimi söyleyebilir misiniz? |
| ... shahar markaziga ... | / | ... şehir merkezine ... |
| ... aerovokzalga ... | / | ... hava alanı terminelene ... |
| ... markazga ... | / | ... merkeze ... |
| ... vokzalga ... | / | ... gara ... |
| ... mehmonxonaga ... | / | ... otele ... |
| Metrogacha... | / | Metroya kadar ... |
| Mehmonxonagacha ... | / | Otele kadar ... |
| Maydongacha ... | / | Meydana kadar ... |
| ... bu yerdan uzoqmi? | / | ... buradan uzak mıdır? |
| Men ...-ga to'g'ri ketyapmanmi? | / | Ben ...-a (-e, -ya, -ye, -na, -ne) doğru mu gidiyorum? |
| Ma'lumotlar byurosi ... | / | Danışma (Danışma bürosu) ... |
| Yer osti o'tish joyi ... | / | Yeraltı geçidi ... |
| Metro stansiyasi ... | / | Metro istasyonu ... |

| | | |
|---|---|---|
| Hojatxona ... | / | Tuvalet ... |
| ... qayerda joylashgan? | / | ... nerededir? |
| Bu yerdan ...-gacha piyoda borish mumkinmi? | / | Buradan ...-a (-e, -ya, -ye, -na, -ne) kadar yürüyerek gidilebilirmi? |
| Menga ... ko'cha(si) kerak | / | Bana ... sokağı lazım |
| Men bu shaharda birinchi bo'lishim | / | Ben bu şehirde ilk defa bulunuyorum |
| Men biroz adashdim | / | Ben kısa bir süre kayboldum |
| Bu ko'cha (maydon)ning nomi qanday? | / | Bu caddenin (meydanın) adı nedir? |
| Bu ko'cha qayerga olib chiqadi? | / | Bu sokak nereye çıkıyor? |
| Men ... nomerli uyni topolmayapman | / | Ben ... numaralı evi bulamıyorum |
| Yana bir tushuntiring, iltimos | / | Bir kez daha anlatın lütfen |
| Siz to'g'ri (noto'g'ri) ketyapsiz | / | Siz doğru (yanlış) gidiyorsunuz |
| Siz ... kerak | / | Sizin ... lazım |
| ... chap (o'ng)ga burilishingiz ... | / | ... sola (sağa) dönmeniz ... |
| ... to'g'ri borishingiz ... | / | ... düz gitmeniz ... |
| ... orqaga qaytishingiz ... | / | ... geri dönmeniz ... |
| ... qarshi tomonga o'tishingiz ... | / | ... diğer tarafa geçmeniz ... |
| Bu yerdan o'tib bo'lmaydi | / | Buradan geçilemez |
| O'tish joyi biroz narida | / | Geçiş yeri biraz daha ileride |
| U yerga piyoda borsa bo'ladi | / | Oraya yürüyerek gidilebilir |
| Sizning metroda borganingiz ma'qul | / | Sizin için metroda gitmek en iyisi |
| Bu 10-15 daqiqa vaqtni oladi | / | Bu 10-15 dakika zaman alır |
| Ha, bu yer ancha uzoq | / | Evet, orası oldukça uzak |
| Ma'lumotlar byurosi muyulishdan keyin joylashgan | / | Danışma bürosu köşeden sonradır |

## Taksida / Takside

| | | |
|---|---|---|
| Taksi to'xtaydigan joy qayerda? | / | Taksi durağı nerede? |
| Taksi bo'sh (band)mi? | / | Taksi boş (dolu) mudur? |
| Siz bo'shmisiz (bandmisiz)? | / | Siz müsait (müsait değil) misiniz? |
| Meni ... manzilga eltib qo'ying | / | Beni ... adrese götürün |
| Meni ... vokzal(i)ga eltib qo'ya olasizmi? | / | Beni ... garına götürebilir misiniz? |
| ... aeroportga ... | / | ... hava alanına ... |
| ... savdo markaziga ... | / | ... alışveriş merkezine ... |
| Iltimos, tezroq, men shoshilyapman (kechikyapman) | / | Lütfen biraz daha hızlı, benim acelem var (geç kalıyorum) |
| Iltimos, ... to'xtang | / | Lütfen ... durun |
| ... shu yerda ... | / | ... burada ... |
| ... muyulishda ... | / | ... köşede ... |
| ... mana bu uy oldida ... | / | ... işte bu evin önünde ... |
| ... o'tish joyi oldida ... | / | ... geçiş yeri önünde ... |
| Men shu yerda tushishim kerak | / | Benim burada inmem gerekiyor |
| Meni biroz kuting, darrov qaytaman | / | Beni biraz bekleyin, hemen döneceğim |
| Hisoblagichni o'chirmang | / | Sayacı kapatmayın |
| Ketdik | / | Gidelim |
| Men sizga qancha to'lashim kerak? | / | Ben size ne kadar ödemem gerekiyor? |
| Qancha to'lashim kerak? | / | Ne kadar ödemem gerekiyor? |
| Marhamat, oling | / | Buyurun lütfen |
| Taksi band (bo'sh) | / | Taksi dolu (boş) |
| Men ishimni tugatib, parkka ketyapman | / | Ben işimi bitirdim, parka gidiyorum |
| Marhamat, o'tiring | / | Oturun lütfen |
| Tasmalarni taqib oling | / | Emniyet kemerlerini bağlayın |

Qayerga borishingiz kerak? / Nereye gitmeniz gerekiyor?
Qanday (qaysi yo'ldan) boramiz? / Nasıl (hangi yoldan) gideceğiz?
Shoshayotganingiz yo'qmi? / Aceleniz yok mu?
Mashinaga benzin quyishim kerak / Arabaya benzin almam gerekiyor
Siz ... so'm to'laysiz / Siz ... lira ödeyeceksiniz

## Muhojirlar byurosida / Yabancılar Şübesinde

Men ... hozirgina tushdim / Ben ... az önce indim
... poyezddan ... / ... trenden ...
... avtobusdan ... / ... otobüsten ...
... samolyotdan ... / ... uçaktan ...
... taksidan ... / ... taksiden ...
Men mana bu shartnoma bo'yicha kelganman / Ben işte bu anlaşmaya göre geldim
Kimga uchrashishim kerak? / Kiminle görüşmem gerekiyor?
Mening xizmat safarim ...-gacha / Benim iş gezim ...-ne (-na) kadar
Menga mana bu korxonaning manzili kerak / Bana işte bu işletmenin adresi lazım
Bu yerda ro'yxatdan o'tishim mumkinmi? / Burada kayıt yaptırabilir miyim?
Mana mening hujjatlarim / İşte benim dokümanlarım
Ro'yxatdan o'tish uchun qayerga murojaat qilaman? / Kayıt için nereye başvurabilirim?
Yollanma ishchilar yotoq joy bilan ta'minlanadimi? / Gündelikçi işçilere yatakhane sağlanıyor mu?
Mana bu varaqani turk tilida to'ldiring / İşte bu formu Türkçe doldurun
Buyumlaringizni omonatxonaga qoldirishingiz mumkin / Eşyalarınızı Emanet odasına bırakabilirsiniz
Hamma rasmiy hujjatlar yoningizdami? / Tüm resmi belgeler yanınızda mıdır?

## Mehmonxonada / Otelde

| | | |
|---|---|---|
| Mehmonxona qayerda joylashgan? | / | Otel nerede yerleşmiştir? |
| ... mehmonxonasiga qanday borish mumkin? | / | ... oteline nasıl gidilir? |
| Sen (siz) qaysi mehmonxonaga tushding(-iz)? | / | Sen (siz) hangi otelde kalıyorsun(-uz)? |
| Sizda bo'sh xonalar bormi? | / | Sizde boş (müsait) odalar var mıdır? |
| Mening tunaydigan joyim yo'q | / | Benim kalacak yerim yok |
| Menga bir kishilik (ikki kishilik) xona kerak | / | Bana tek kişilik (çift kişilik) oda lazım |
| Bu xonaning sutkalik narxi necha pul turadi? | / | Bu odanın bir gecelik ücreti ne kadardır? |
| Bu xona nechanchi qavatda joylashgan? | / | Bu oda hangi kattadır? |
| Xonada qanday qulayliklar bor? | / | Odada ne gibi olanaklar var? |
| Xonada ... bormi? | / | Odada ... var mıdır? |
| ... hojatxona ... | / | ... tuvalet ... |
| ... dush ... | / | ... duş ... |
| ... telefon ... | / | ... telefon ... |
| ... televizor ... | / | ... televizyon ... |
| Sizlarda ... biror narsa bormi? | / | Sizde ... bir şey var mıdır? |
| ... tuzukroq ... | / | ... daha iyi ... |
| ... arzonroq ... | / | ... daha ucuz ... |
| Menga yotoqxona administratori (komendanti)ni chaqirib bera olasizmi? | / | Bana yurt yöneticisini (müdürünü) çağırabilir misiniz? |
| Mana mening pasportim (guvohnomam) | / | İşte benim pasaportum (kimliğim) |
| Men bu yerga xizmat safari (ekskursiya)ga keldim | / | Ben buraya iş gezisine (geziye) geldim |
| Men bu yerda ... qolaman | / | Ben burada ... kalacağım |

| | | |
|---|---|---|
| ... uch kun (besh kun) ... | / | ... üç gün (beş gün) ... |
| ... bir hafta (ikki hafta) ... | / | ... bir hafta (iki hafta) ... |
| Men bu yerga bir necha kunga keldim | / | Ben buraya birkaç günlüğüne geldim |
| Iltimos, nomerim (xonam)ning kalitini ber(-ing) | / | Lütfen numaram (odam)ın anahtarını ver(-in) |
| Yangi ko'rpa-yostiq jildlarini qayerdan olish mumkin? | / | Temiz yorgan ve yastık çarşaflarını nereden alabilirim? |
| Ko'rpa-yostiq jildlarini almashtirib bera olasimizmi? | / | Yorgan ve yastık çarşaflarını değiştirebilir misiniz? |
| Bu yerda bufet (kafe, bar) bormi? | / | Burada büfe (kafe, bar) var mıdır? |
| Omonatxona qaysi soatlarda ochiq bo'ladi? | / | Emanet odası hangi saatlerde açık oluyor? |
| Kostyum (ko'ylak)ni qayerda dazmollash mumkin? | / | Ceket (gömlek) nerede ütülenebilir? |
| Men ... kerak | / | Benim ... gerekiyor |
| ... shim (yubka)ni dazmollashim ... | / | ... pantolonu (eteği) ütülemem ... |
| ... kostyum (plashch)ni tozalashim ... | / | ... ceketi (trençkotu) temizlemem ... |
| ... ko'ylak (ichki kiyim)ni yuvishim ... | / | ... gömleği (iç çamaşırını) yıkamam... |
| Qachon tayyor bo'ladi? | / | Ne zaman hazır oluyor? |
| Dush (hojatxona) qayerda? | / | Duş (tuvalet) nerede? |
| Iltimos, meni soat ... da uyg'ot(-ing) | / | Lütfen beni saat ...-da(-de, -te) uyandır(-ın) |
| Meni biror odam so'radimi? | / | Beni kimse sordu mu? |
| Menga biror odam qo'ng'iroq qildimi? | / | Bana kimse telefon etti mi? |
| Qara(-ng)-chi, menga xat yo'qmi? | / | Bakar mısın(-ız), bana mektup yok mu? |
| Xonamda lampochka kuyib qoldi | / | Odamda ampul sönüverdi |
| Televizorim ishlamayapti | / | Televizyonum çalışmıyor |

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, menga hisob-kitobni yozib ber(-ing) | / | Lütfen bana hesabı yazarak ver(-in) |
| Men hisob bo'yicha to'lamoqchiman | / | Ben hesaba göre ödemek istiyorum |
| Hozir bo'sh xona (o'rin) yo'q | / | Şu anda boş oda (yer) yok |
| Siz biroz kutishingiz lozim | / | Sizin biraz beklemeniz gerekiyor |
| Sizga qaysi xona kerak? | / | Size hangi oda lazım? |
| Iltimos, pasportingizni bering | / | Lütfen pasaportunuzu verin |
| Marhamat, registratsiya varaqasini to'ldiring | / | Lütfen kayıt formunu doldurun |
| Xonangizda barcha qulayliklar bor | / | Odanızda tüm olanaklar vardır |
| Xonangiz ...-(i)nchi qavatda | / | Odanız ...-inci (-ıncı, -uncu, -üncü) kattadır |
| Hojatxona va dush koridorning oxirida joylashgan | / | Tuvalet ve duş koridorun sonundadır |
| Kostyumni maishiy xonada dazmollash mumkin | / | Ceket işlik odasında ütülenebilir |
| Yotoqxona komendantiga uchrashing | / | Yurt yöneticisiyle (müdürüyle) görüşün |
| Xonada siz bilan yana ikki (uch) kishi yashaydi | / | Odada sizinle birlikte daha iki (üç) kişi yaşayacak |
| Qo'shnilaringizga xalaqit bermang | / | Komşularınıza rahatsızlık vermeyin |
| Iltimos, shovqin solmang | / | Lütfen gürültü yapmayın |
| Musiqani pastroq qiling | / | Müziği daha sessiz yapın |
| Mana sizning hisobingiz | / | İşte sizin hesabınız (faturanız) |
| ... so'm to'lashingiz kerak | / | ... lira ödemeniz gerekiyor |

# 2-QISM. 2. BÖLÜM

## UMUMIY BO'LIM / GENEL BÖLÜM

Turk tilida salomlashganda, bizdan farqli o'laroq, kunning qaysi payt ekanligi e'tiborga olinadi. Masalan, ertalab "Günaydın", "İyi sabahlar", kunduzi "İyi günler" va h.k. tarzida salom-alik qilinadi.

Turklarning kattalarga ehtiromini izhor qilish uchun qo'l o'pish odati bor. Ko'cha-kuyda, tasodifan uchrashib qolinganida, qo'l o'pish salomlashishning bir bo'lagi hisoblanadi. Ko'pincha bayramlarda, ayniqsa, hayit ayyomlarida yoshi ulug'lar, kattalar ziyorat qilinadi va qo'llari o'pilib, ularning duolari olinadi.

Kimgadir murojaat qilinganda, birinchi ko'rishilganda, hurmat yuzasidan "siz", yaqin qarindoshlar va yaqin kishilarga nisbatan "sen" deya, notanish ayollarga "hanımefendi" yoki "bayan", erkak kishilarga, odatda, "beyefendi" deya murojaat qilinadi.

Mazkur bo'limda siz kishilar bilan munosabat o'rnatishdagi eng zarur muloqot uslublarini, salomlashishdan tortib, xayrlashishgacha, oddiy suhbatdoshlikdan to do'stlashishgacha bo'lgan jarayonlarda sizga asqatuvchi so'zlar bilan tanishasiz. Bir so'z bilan aytganda, sizni atrofingizdagi odamlar bilan chambarchas bog'lovchi eng zarur so'z va iboralar ushbu bo'limda jamlangan.

| | | |
|---|---|---|
| Uchrashuv, salomlashuv | / | Karşılaşma, merhabalaşma |
| Assalomu alaykum! Salom! | / | Selamünaleyküm! Merhaba! |
| Xayrli tong! | / | Günaydın! |
| Tonging(-iz) xayrli bo'lsin! | / | Günün(-üz) aydın olsun! |
| Xayrli kun! | / | İyi günler! |
| Xayrli kech (oqshom)! | / | İyi akşamlar! |
| Seni (sizni) ko'rganimdan juda xursandman! | / | Seni (sizi) gördüğüme çok sevindim |
| Xush kelibsan(-siz) (Kelganing(-iz) dan xursandman)! | / | Hoş geldin(-iz) (Gelmen(-iz)e sevindim)! |

| | | |
|---|---|---|
| Xush kelibsizlar! | / | Hoş geldiniz! |
| Qandaysiz? | / | Nasılsınız? |
| Ahvoling(-iz) qalay? | / | Durumun(-uz) nasıl? |
| Ishlaring(-iz) qalay? | / | İşlerin(-iz) nasıl? |
| Ishlaring(-iz) yaxshimi? | / | İşlerin(-iz) iyi midir? |
| Sog'liging(-iz) qalay? | / | Sağlığın(-ız) nasıl? |
| Sog'liging(-iz) yaxshimi? Tuzukmisan(-siz)? | / | Sağlığın(-ız) iyi mi? İyi misin(-iz)? |
| Oilang(-iz) yaxshimi? | / | Ailen(-iz) iyi mi? |
| Yaxshi yetib olding(-iz)mi? | / | İyi vardın(-ız) mı? |
| Sog'-salomat yetib olding(-iz)mi? | / | Sağ salim vardın(-ız) mı? |
| Rahmat, yaxshi | / | Teşekkür ederim, iyi |
| Juda yaxshi! | / | Çok iyi! |
| Tashakkur, juda yaxshi! | / | Teşekkürler, çok iyi! |
| Juda soz! | / | Harika! |
| Yomon emas | / | Fena değil |
| Hammasi joyida | / | Her şey yolunda |
| Unchalik emas | / | Pek iyi değil |
| Bir navi (o'rtacha) | / | Şöyle böyle (orta derecede) |
| Yomon (Yaxshi emas) | / | Kötü (İyi değil) |
| Juda yomon | / | Çok kötü |
| Nima (qanday) yangiliklar bor? | / | Ne gibi (nasıl) yenilikler var? |
| Nima gaplar bor? | / | Ne haberler var? (Ne var ne yok?) |
| Hech gap yo'q (Hech qanday yangilik yo'q) | / | Bir şey yok (Değişik bir şey yok) |
| Arzigulik gap yo'q | / | Önemli bir şey yok |
| Hammasi avvalgiday | / | Her şey eskisi gibi |
| Ruxsat et(-ing), o'zimni tanishtiray. Men... | / | Kendimi tanıtmama izin ver(-in). Ben... |

| | | |
|---|---|---|
| Sen (siz) bilan tanishishga ruxsat et(-ing) | / | Sen (siz)inle tanışmama izin ver(-in) |
| Sen (siz) bilan tanishsam bo'ladimi? | / | Sen (siz)inle tanışabilir miyim? |
| Kel(-ing), tanishaylik | / | Hadi tanışalım |
| Mening ismim... | / | Benim adım... |
| Kechirasan(-siz), isming(-iz) nima? | / | Affedersin(-iz) adın(-ız) ne? |
| Seni (sizni) ... bilan tanishtirishga ruxsat et(-ing) | / | Seni (sizi) ...-la (-le) tanıştırmama izin ver(-in) |
| Seni (sizni) ... bilan tanishtirmoqchiman | / | Seni (sizi) ...-la (-le) tanıştırmak istiyorum |
| ... do'stim bilan ... | / | ... arkadaşımla ... |
| ... akam (ukam) bilan ... | / | ... ağabeyim (kardeşim)le ... |
| ... opam (singlim) bilan ... | / | ... ablamla (kız kardeşimle) ... |
| ... dugonam bilan ... | / | ... kız arkadaşımla ... |
| Juda yaxshi! | / | Çok iyi! (Çok güzel!) |
| Sen (siz) bilan tanishganimdan xursandman | / | Sen (siz)inle tanıştığıma memnun oldum |
| Sen (siz) bilan tanishganimdan juda xursandman | / | Sen (siz)inle tanıştığıma çok memnun oldum |
| Biz tanishmiz | / | Biz tanışıyoruz |
| Biz ilgari uchrashganmiz | / | Biz daha önce karşılaşmıştık |
| Seni (sizni) anchadan beri ko'rmadim | / | Seni (sizi) uzun zamandır görmedim |
| Seni (sizni) ilgari qayerdadir ko'rganman | / | Seni (sizi) daha önce bir yerde görmüştüm |
| Sizni ilgari qayerdadir uchratganman | / | Size daha önce bir yerde rastlamıştım |
| Sen (siz) haqda ko'p eshitganman | / | Sen (siz)in hakkın(-ız)da çok şey duydum |
| Men Samarqanddan (Samarqand shahridan) keldim | / | Ben Semerkant'tan (Semerkant şehrinden) geldim |

| | | |
|---|---|---|
| Men ... delegatsiyasi bilan keldim | / | Ben ... heyetiyle geldim |
| Men O'zbekistonga sayyoh (muxbir, quruvchi) bo'lib keldim | / | Ben Özbekistan'a turist (muhabir, inşaatçı) olarak geldim |
| Senga (sizga) ... ko'pdan-ko'p salom aytdi | / | Sana (size) çok çok selam söyledi |
| Qayerdan kelding(-iz)? | / | Nereden geldin(-iz)? |
| Qaysi mehmonxonaga joylashding-(-iz)? | / | Hangi otele yerleştin(-iz)? |
| Men (biz) "O'zbekiston" mehmonxonasiga joylashdim(-dik) | / | Ben (biz) "Özbekistan" oteline yerleştim(-tik) |
| Men (biz) biror xonani ijaraga olmoqchiman(-miz) | / | Ben (biz) bir oda kiralamak istiyorum(-ruz) |
| Biznikiga kel(-ing), juda xursand bo'laman(-miz) | / | Bize gel(-in), çok memnun olurum-(-ruz) |

## Til, suhbat / Dil, söhbet

| | | |
|---|---|---|
| Nima deding(-iz)? | / | Ne dedin(-iz)? |
| Bu kim? | / | Bu kimdir? |
| Tushunding(-iz)mi? | / | Anladın(-ız) mı? |
| Tushunarlimi? | / | Anlaşıldı mı? |
| Tushundim | / | Anladım |
| Men hammasini tushundim | / | Ben hepsini anladım |
| Men seni (sizni) tushunmayapman | / | Ben seni (sizi) anlayamıyorum |
| Men seni (sizni) mutlaqo tushuna olmayapman | / | Ben seni (sizi) hiç anlayamıyorum |
| Baribir tushunolmayapman | / | Yine de anlayamıyorum |
| Bu yerda kim turk tilini biladi? | / | Burada kim Türkçe biliyor? |
| Sen (siz) turkcha gaplasha olasan(-siz)mi? | / | Sen (siz) Türkçe konuşabiliyor musun(-uz)? |
| Turk tilida gaplashish (o'qish, yozish)ni o'rganmoqchiman | / | Türkçe konuşma (okuma, yazma)yı öğrenmek istiyorum |

| | | |
|---|---|---|
| Turkcha lug'atlarni qayerdan topsam bo'ladi? | / | Türkçe sözlükleri nereden bulabilirim? |
| Men turk tilini maktabda o'rganganman | / | Ben Türkçeyi okulda öğrenmiştim |
| Turkchani oz-moz tushunaman | / | Türkçeyi biraz anlıyorum |
| Men turk tilini u qadar yaxshi bilmayman | / | Ben Türkçeyi o kadar iyi bilmiyorum |
| Men turk (o'zbek) tilida yaxshi gapira olmayman | / | Ben Türk (Özbek) dilinde iyi konuşamıyorum |
| Gapimga tushunyapsan(-siz)mi? | / | Söylediklerimi anlıyor musun(-uz)? |
| Tushunaman, ammo javob qaytara olmayman | / | Anlıyorum ama yanıt veremiyorum |
| Men seni (sizni) tushunyapman, biroq gapirishga qiynalaman | / | Ben seni (sizi) anlıyorum ama konuşmakta zorluk çekiyorum |
| Gaping(-iz)ga tushunmayapman | / | Söylediklerini(-zi) anlamıyorum |
| Sekinroq gapir(-ing) | / | Biraz yavaş konuş(-un) |
| Iltimos, yana bir (marta) takrorla(-ng) | / | Lütfen bir (kez) daha tekrarla(-yın) |
| Marhamat qilib, ayt(-ing)-chi | / | Lütfen söylesen(-iz)e |
| Bu yerda nima yozilganini tushuntirib ber(-ing) | / | Burada ne yazıldığını anlat(-ın) |
| Bu so'z qanday talaffuz etiladi? | / | Bu kelime nasıl telaffuz edilir? |
| Bu so'z nimani anglatadi? | / | Bu kelime ne anlama geliyor? |
| Buning turkcha nomi nima? | / | Bunun Türkçe adı nedir? |
| Bu so'z qanday yoziladi? | / | Bu kelime nasıl yazılıyor? |
| Marhamat, buni turk tilida yoz(-ing) | / | Lütfen bunu Türk dilinde yaz(-ın) |
| Bu so'zning to'g'ri talaffuzi qanday bo'ladi? | / | Bu kelimenin doğru telaffuzu nasıl oluyor? |
| Sening (sizning) talaffuzing(-iz) yaxshi | / | Senin (sizin) telaffuzun(-uz) iyi |
| Iltimos, bundan ham sekinroq gapirsang(-iz) | / | Lütfen bundan da yavaş konuş(-un) |

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, bu yerda nima yozilganini tushuntirib ber(-ing) | / | Lütfen burada ne yazıldığını anlat(-ın) |
| Nima istaysan(-siz)? | / | Ne istiyorsun(-uz)? |

## Taklif / Davet

| | | |
|---|---|---|
| Kel(-ing), ... | / | Hadi ... |
| ... ishdan keyin uchrashaylik | / | ... mesaiden sonra buluşalım |
| ... birga ovqatlanamiz | / | ... beraber yemek yeriz |
| ... biroz sayr qilaylik | / | ... biraz gezelim |
| ... raqs tushaylik | / | ... dans edelim |
| ... musiqa eshitaylik | / | ... müzik dinleyelim |
| ... kinoga (klubga) boraylik | / | ... sinemaya (kulübe) gidelim |
| ... do'stlarimizni borib ko'raylik | / | ... gidip arkadaşlarımızı görelim |
| ... magazinga kiraylik | / | ... mağazaya girelim |
| ... shahar tashqarisiga chiqaylik | / | ... şehir dışına çıkalım |
| ... tanaffus qilaylik | / | ... ara verelim |
| Yur(-ing), stadionga (ko'rgazmaga, kinoga, tansaga) boramiz | / | Yürü(-yün) stadyuma (sergiye, sinemaya, tangoya) gidiyoruz |
| Seni (sizni) ...-ga taklif qilish mumkinmi? | / | Seni (sizi) ...-a (-e, -ya, -ye) davet edebilir miyim? |
| Seni (sizni) kinoga (klubga, teatrga, muzeyga, konsertga, ko'rgazmaga, sayohatga, sayrga, shu tansaga, mehmonga, restoranga) taklif qilmoqchiman | / | Seni (sizi) sinemaya (kulübe, tiyatroya, müzeye, konsere, sergiye, geziye, yürüyüşe, bu tangoya, misafirliğe, restorana) davet etmek istiyorum |
| Shaharda sayr qilishni xohlaysan(-siz)mi? | / | Şehirde gezmek ister misin(-iz)? |
| Qayiqda yurishni xohlaysan(-siz)mi? | / | Tekneye binmek ister misin(-iz)? |
| Musiqa eshitishni xohlaysan- (-siz) mi? | / | Müzik dinlemek ister misin(-iz)? |

| | | |
|---|---|---|
| Shaxmat o'ynashni xohlaysan (-siz) mi? | / | Satranç oynamak ister misin- (-iz)? |
| Menikiga (biznikiga) mehmon bo'lib kel(-ing) | / | Bana (bize) misafirliğe gel(-in) |
| Marhamat, kir(-ing) | / | Lütfen gir(-in) |
| Marhamat, o't(-ing) | / | Lütfen geç(-in) |
| Marhamat, o'tir(-ing) | / | Lütfen otur(-un) |
| Dasturxonga marhamat | / | Sofraya buyurun |
| O'z uying(-iz)dagidek bemalol o'tir-(-ing) | / | Kendi evin(-iz)de gibi rahat otur-(-un) |
| Yana kel(-ing) | / | Yine gel(-in) |
| Biznikiga kel(-ing) | / | Bize gel(-in) |
| Kelasi yil biznikiga kelasan(-siz) deb umid qilamiz | / | Gelecek sene bize geleceğini(-zi) umuyoruz |

## Tarjimayi hol / Öz geçmiş

| | | |
|---|---|---|
| Familiyang(-iz) nima? | / | Soyadın(-ız) nedir? |
| Isming(-iz) nima? | / | Adın(-ız)nedir? |
| Yoshing(-iz) nechada? | / | Kaç yaşındasın(-ız)? |
| Sen (siz) qachon tug'ilgansan(-siz)? | / | Sen (siz) ne zaman doğdun(-uz)? |
| Nechanchi yilda tug'ilgansan(-siz)? | / | Kaçıncı yılında doğdun(-uz)? |
| Sen (siz) qayerda tug'ilgansan(-siz)? | / | Sen (siz) nerede doğdun(-uz)? |
| Sening (sizning) oilang(-iz) kattami? | / | Senin (sizin) ailen(-iz) büyük müdür? |
| Oilang(-iz) necha kishidan iborat? | / | Ailen(-iz) kaç kişiden oluşuyor? |
| Sening (sizning) nechta aka-singlingiz bor? | / | Senin (sizin) kaç erkek ve kız kardeşin(-iz) var? |
| Ota-onang(-iz) hayotmi? | / | Ebeveynlerin(-iz) yaşıyor mu? |
| Ota-onang(-iz) qayerda yashaydi? | / | Ebeveynlerin(-iz) (ana baban(-ız) nerede yaşıyor? |

| | | |
|---|---|---|
| Millating(-iz) nima? | / | Uyruğun(-uz) nedir? |
| Ma'lumoting(-iz) qanaqa? | / | Eğitim durumun(-uz) nedir? |
| O'rta maktabni qachon tugatgansan(-siz)? | / | Ortaokulu ne zaman bitirdin(-iz)? |
| Sen (siz) qayerda o'qigansan(-siz)? | / | Sen (siz) nerede eğitim aldın(-ız)? |
| Sen (siz) qayerda ishlagansan(-siz)? | / | Sen (siz) nerede çalıştın(-ız)? |
| Sen (siz) kim bo'lib ishlagansan(-siz)? | / | Sen (siz) ne olarak çalıştın(-ız)? |
| Uylanganmisan(-siz)? | / | Evli misin(-iz)? |
| Erga tekkanmisan(-siz)? | / | Evli misin(-iz)? |
| Farzandlaring(-iz) bormi? | / | Çocukların(-ız) var mı? |
| Sening (sizning) nechta farzanding (-iz) (bolang(-iz) bor? | / | Senin (sizin) kaç evladın(-ız) (çocuğun(-uz) var? |
| Xotining(-iz) nima ish qiladi? | / | Karın(-ız) ne iş yapıyor? |
| Ering(-iz) nima ish qiladi? | / | Kocan(-ız) ne iş yapıyor? |
| Hozir sen (siz) qayerda ishlayapsan(-siz)? | / | Şu andasen (siz) nerede çalışıyorsun(-uz)? |
| Sen (siz) harbiy xizmatda bo'lganmisan(-siz)? | / | Sen (siz) askerliğini(-zi) yaptın- (-ız) mı? |
| Kelgusi rejalaring(-iz) qanday? | / | Gelecekteki planların(-ız) nasıl? |
| Kelajakda nima ish qilmoqchisan(-siz)? | / | İleride ne iş yapacaksın(-ız)? |
| Kelajakda o'qish niyating(-iz) bormi? | / | İleride okumayı (eğitim almayı) düşünüyor musun(-uz)? |
| Mening familiyam ... | / | Benim soyadım ... |
| Mening ismim ... | / | Benim adım ... |
| Men 1984 (ming to'qqiz yuz sakson to'rtinchi) yilda tug'ilganman | / | Ben 1984 (bin dokuz yüz seksen dört) yılında doğdum |
| Men shaharda (qishloqda) tug'ilganman | / | Ben şehirde (köyde) doğdum |
| Bizning oilamiz katta | / | Bizim ailemiz büyük |

| | | |
|---|---|---|
| Mening ikkita aka-ukam, uchta opasinglim bor | / | Benim iki erkek kardeşim, üç kız kardeşim var |
| Mening ota-onam hayot | / | Benim annem ve babam hayatta |
| Mening otam vafot etgan, onam esa hayot | / | Benim babam vefat etti, annem ise hayatta |
| Mening ota-onam Toshkentda yashaydilar | / | Benim ebeveynlerim Taşkent'te yaşıyor |
| Otam – ishchi, onam esa – uy bekasi | / | Babam işçi, annem de ev hanımıdır |
| Men o'zbekman | / | Ben Özbek'im |
| Men o'rta (oliy) ma'lumotliman | / | Ben ortaokul (lisans) eğitimliyim |
| Men (o'rta) maktabni 2001 (ikki ming birinchi) yilda tugatganman | / | Ben (orta) okuldan 2001(iki bin bir) yılında mezun oldum |
| Men qishloqda (shaharda) o'qiganman | / | Ben köyde (şehirde) okudum |
| Maktabni tugatib, zavodda (fabrikada, qurilishda, tashkilotda, fermer xo'jaligida) ishladim | / | Okuldan mezun olduktan sonra fabrikada (üretim evinde, inşaatta, kurumda, çiftlikte) çalıştım |
| Maktabni tugatib, armiyada xizmat qildim | / | Okuldan mezun olduktan sonra orduda görev yaptım |
| Men partiya a'zosiman | / | Ben parti üyesiyim |
| Men uylanganman | / | Ben evliyim |
| Men turmushga chiqqanman (erga tekkanman) | / | Ben evliyim |
| Bizning ikki (bir) farzandimiz bor | / | Bizim iki (bir) çocuğumuz var |
| Xotinim fabrikada ishlaydi va o'qiydi | / | Karım fabrikada çalışıyor ve eğitim alıyor |
| Mening turmush o'rtog'im (erim) hozir harbiy xizmatda | / | Benim eşim (kocam) şu anda askerde |
| Men harbiy xizmatdan bu yil (o'tgan yili, bundan ikki yil burun) qaytganman | / | Ben askerden bu yıl (geçen yıl, iki yıl önce) döndüm |
| Men qurilishga bormoqchiman | / | Ben inşaata gitmek istiyorum |

| | | |
|---|---|---|
| Men o'qishimni davom ettirmoqchiman | / | Ben eğitimimi devam ettirmek istiyorum |
| Men ishlab turib o'qimoqchiman | / | Ben çalışırken aynı zamanda eğitimime devam etmek istiyorum |
| Men universitetda o'qishni istayman | / | Ben üniversitede okumak (eğitim almak) istiyorum |

## Rozilik, norozilik / Razı gelmek, razı gelmemek

| | | |
|---|---|---|
| Marhamat | / | Lütfen |
| Men roziman | / | Ben razıyım (Ben kabul ediyorum) |
| Men qarshi emasman | / | Ben karşı değilim |
| E'tirozim yo'q | / | İtirazım yok |
| Men tayyorman | / | Ben hazırım |
| Bajonidil, jonim bilan | / | Büyük bir zevkle, seve seve |
| Mamnuniyat bilan | / | Zevkle |
| Hozir | / | Şimdi |
| Ha, albatta | / | Evet, tabii ki |
| Albatta, mumkin | / | Tabii ki, mümkün |
| So'zsiz, shubhasiz | / | Kesinlikle, şüphesiz |
| Mayli, ma'qul | / | Peki, tamam |
| Yaxshi! | / | İyi! |
| Juda soz! | / | Harika! (Çok güzel!) |
| Juda yaxshi! | / | Çok iyi! (Pekâlâ!) |
| Mana, kelishib ham oldik! | / | İşte, anlaştık bile! |
| Kelishdik! Bo'pti! | / | Anlaştık! Peki! |
| Siz mutlaqo haqsiz | / | Siz kesinlikle haklısınız |
| Men ham shu fikrdaman | / | Ben de aynı fikirdeyim |
| Men juda xursandman | / | Ben çok memnunum |

## Rad etish, taqiqlash / Reddetme, yasaklama

| | | |
|---|---|---|
| Yo'q, rahmat | / | Hayır, teşekkür ederim |
| Yo'q, senga (sizga) tashakkur bildiraman | / | Hayır, sana (size) teşekkür ederim |
| Afsuski, men qilolmayman | / | Üzgünüm, ben yapamam |
| yo'q / Men juda istayman, ammo ilojim yo'q | / | Ben çok istiyorum, ama olanağım |
| Yo'q, men xohlamayman | / | Hayır, ben istemiyorum |
| Men voz kechishga majburman | / | Ben vazgeçmek zorundayım |
| Men voz kechishim kerak | / | Benim vazgeçmem gerekiyor |
| Senga (sizga) qo'shila olmayman | / | Sana (size) katılamıyorum |
| Siz nohaqsiz | / | Siz haksızsınız |
| Sen nohaqsan | / | Sen haksızsın |
| Men bunga qarshiman | / | Ben buna karşıyım |
| Aslo | / | Asla (Katiyen) |
| Bu mumkin emas | / | Bu mümkün değil (Bu olanaksız) |
| Yo'q, mumkin emas | / | Hayır, mümkün değil |
| Bu man etiladi | / | Bu menediliyor (Bu yasaklanıyor) |
| Tegma(-ng)! | / | Dokunma(-yın)! |
| Bas! Yetar! | / | Kes! Yeter! |
| Bas qil(-ing) | / | Kes(-in) |
| Bo'ldi! Bas qil(-ing)! | / | Tamam! Kes(-in) |
| Bular menga yoqmaydi | / | Bunlar benim hoşuma gitmiyor |
| Bularning hech biriga xushim yo'q | / | Bunların hiç birine tahammülüm yok |
| Sendan (sizdan) minnatdorman! | / | Sana (size) minnettarım! |
| Qanday uyat! Sharmandalik! | / | Ne ayıp! Rezalet! |
| Uyalishing(-iz) kerak! | / | Utanman(-ız) gerekir! |
| Qanday tentaklik! | / | Ne aptallık! |

| | | |
|---|---|---|
| Qanday bema'nilik! | / | Ne saçmalık! |
| Bu yolg'on! | / | Bu yalan! |
| Bu shunchaki safsatabozlik! | / | Bu sadece absürtlük! |
| Bu – borib turgan bema'nilik! | / | Bu çok saçma! |
| Bunga aslo chidab bo'lmaydi! | / | Buna hiç bir şekilde dayanmak mümkün değil! |
| Rasvogarchilik! | / | Kepazelik! |
| Bu – bo'lmag'ur ish (Bu – yaramaslik!) | / | Bu iğrenç bir iş (Bu adilik!) |
| Nima gap? | / | Ne var? |
| Bu yerda nima bo'lyapti? | / | Burada ne oluyor? |

## Kechirim so'rash / Özür dileme

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, ... meni kechir(-ing) | / | Lütfen ... beni affet(-din) |
| ... kelolmaganim uchun ... | / | ... gelemediğim için ... |
| ... kechikkanim uchun ... | / | ... geciktiğim için ... |
| ... senga (sizga) qo'ng'iroq qilolmaganim uchun ... | / | ... seni (sizi) arayamadığım için ... |
| ... gaping(-iz)ni bo'lganim uchun ... | / | ... sözünü(zü) böldüğüm için ... |
| ... seni (sizni) kutmaganim uchun ... | / | ... seni (sizi) beklemediğim için ... |
| Uzr so'rayman! Kechir(-ing) | / | Özür dilerim! Affedersin(-iz) |
| Aybdorman | / | Suçluyum |
| Sendan (sizdan) uzr so'ramoqchiman | / | Senden (sizden) özür dilemek istiyorum |
| Sendan (sizdan) uzr so'rashim kerak | / | Senden (sizden) özür dilemem gerekiyor |
| Jahling(-iz) chiqmasin | / | Sinirlenme(-yin) |
| Mendan xafa bo'lma(-ng) | / | Bana darılma(-yın) |
| Men aybdor emasman | / | Ben suçlu değilim |

Kechir(-ing), seni (sizni) xafa qilmoqchi emasdim / Affedersin(-iz), seni (sizi) üzmek istemiyordum

Bezovta qilganim uchun kechir(-ing) / Rahatsız ettiğim için affedersin-(-iz)

Hechqisi yo'q, e'tibor berma(-ng) (tashvishlanma(-ng) / Önemli değil, dikkate alma(-yın) (endişelenme(-yin)

Kechirasan(-siz), senga (sizga) xalal (xalaqit) berdim / Affedersin(-iz), sana (size) rahatsızlık (tedirginlik) verdim

Kechirasan(-siz), ... bilmoqchi edim / Affedersin(-iz), ... öğrenecektim

## Minnatdorchilik / Minnettarlık

Katta rahmat / Çok teşekkür ederim

Yana bir bor rahmat / Tekrar teşekkür ederim

Senga (sizga) ... rahmat / Sana (size) ... teşekkür ederim

... yordaming(-iz) uchun ... / ... yardımın(-ız) için ...

... maslahating(-iz) uchun ... / ... tavsiye(-niz) için ...

... e'tiboring(-iz) uchun ... / ... ilgin(-iz) için ...

... taklifing(-iz) uchun ... / ... davetin(-iz) için ...

... tabriging(-iz) uchun ... / ... kutlama(-nız) için ...

Sen (siz)dan juda minnatdorman / Sana (size) çok minnettarım

Sen (siz)dan juda xursandman / Senden (sizden) çok memnunum

Senga (sizga) tashakkur aytishga ijozat ber(-ing) / Sana (size) teşekkür etmeme izin ver(-in)

Siz juda olijanobsiz / Siz çok kibarsınız

Siz juda iltifotlisiz / Siz çok naziksiniz

Oldindan senga (sizga) minnatdorchilik bildirmoqchiman / Önceden sana (size) teşekkür etmek istiyorum

Taklifing(-iz) uchun chin ko'ngildan minnatdorman / Davetinin(-iz) için içtenlikle teşekkür ederim

Qilgan yaxshiliklaring(-iz) uchun rahmat / Yaptığın(-ız) iyilikler için teşekkür ederim

| | | |
|---|---|---|
| Yaxshi kutib olganing(-iz) uchun rahmat | / | İyi karşıladığın(-ız) için teşekkür ederim |
| Marhamat! | / | Lütfen! (Buyurun!) |
| Arzimaydi! | / | Bir şey değil! (Önemli değil!) |
| Senga (sizga) yordam berganimdan xursand bo'ldim | / | Sana (size) yardım etmekten mutluluk duydum |
| Senga (sizga) yordamim tekkanidan xursandman | / | Sana (size) yardımım dokunduğundan mutluyum |
| Senga (sizga), aksincha, men tashakkur aytishim kerak | / | Sana (size) aksine ben teşekkür etmem gerekiyor |
| Bayraming(-iz) qutlug' bo'lsin! (Bayram bilan!) | / | Bayramın(-ız) kutlu olsun! (Mutlu bayramlar!) |
| Tug'ilgan kuning(-iz) bilan tabriklayman | / | Doğum gününü(-zü) tebrik ederim! |
| Yangi yiling(-iz) qutlug' bo'lsin! | / | Yeni yılın(-ız) kutlu olsun! |
| Seni (sizni) ... tabriklayman | / | Senin (sizin) ... tebrik ederim |
| ... bayram bilan ... | / | ... bayramın (-ız)ı ... |
| ... tug'ilgan kuning(-iz) bilan ... | / | ... doğum günün(-üz)ü ... |
| ... Yangi yil bilan ... | / | ... Yeni yılın(-iz)ı ... |
| ... muvaffaqiyat bilan ... | / | ... başarın(-ız)ı ... |
| Seni (sizni) tabriklashga ijozat ber(-ing) | / | Seni (sizi) tebrik etmeme izin ver(-in) |
| Mening tabriklarimni ...-ga yetkaz(-ing) | / | Benim tebriklerimi ...-a (-e) ilet(-in) |
| Senga (sizga) ... tilayman | / | Sana (size) ... diliyorum |
| ... sog'lik-salomatlik ... | / | ... sağlık ve afiyet (esenlikler) ... |
| ... ulkan baxt ... | / | ... büyük mutluluk ... |
| ... yuksak muvaffaqiyatlar ... | / | ... büyük başarılar ... |
| ... uzoq umr ... | / | ... uzun ömür ... |
| Kasai bo'lma(-ng) | / | Hasta olma(-yın) |

Tez kunda tuzal(-ing) / Çabucak iyileş(-in)
Tezda sog'ayib keting! / Acil şifalar diliyorum!
Ko'rmaganday bo'lib keting! / Geçmiş olsun!
Yoqimli ishtaha! / Afiyet olsun!
Yaxshi tushlar ko'r(-ing)! / İyi rüyalar! (Tatlı rüyalar!)
Yaxshi yotib tur(-ing)! / İyi uykular!

## Iltimos / Rica

Iltimos, ayt(-ing) / Lütfen söyle(-yin)
Iltimos, takrorla(-ng) / Lütfen tekrarla(-yın)
Iltimos, tushuntirib ber(-ing) / Lütfen anlat(-ın)
Iltimos, uzatib yubor(-ing) / Lütfen uzatıver(-in)
Iltimos, yordam ber(-ing) / Lütfen yardım et(-din)
Iltimos, ko'rsat(-ing) / Lütfen göster(-in)
Iltimos, meni kutib tur(-ing) / Lütfen beni bekle(-yin)
Iltimos, to'xta(-ng) / Lütfen dur(-un)
Marhamat, kir(-ing) / Lütfen gir(-in)
Marhamat, qo'ng'iroq qil(-ing) / Lütfen telefon et(-dın)
Iltimos, eshikni (derazani) och- (-ing) / Lütfen kapıyı (pencereyi) aç(-ın)
Iltimos, eshikni (derazani) yop(-ing) / Lütfen kapıyı (pencereyi) kapat(-ın)
Iltimos, chekma(-ng) / Lütfen sigara içme(-yin)
Iltimos, shovqin solma(-ng) / Lütfen gürültü yapma(-yın)
Iltimos, shoshma(-ng) / Lütfen acele etme(-yin)
Iltimos, xalaqit berma(-ng) / Lütfen rahatsızlık verme(-yin)
Iltimos, ... / Lütfen ...
... menga ...-ni uzat(-ing) / ... bana ...-ı (-i, -ğı, -ği, -yı, -yi, -u, -yu, - ü, -yü) uzat(-ın)

| | | |
|---|---|---|
| ... menga ...-ni ko'rsat(-ing) | / | ... bana ...-ı (-i, -ğı, -ği, -yı, -yi, -u, -yu, -ü, -yü) göster(-in) |
| ... yana bir marta takrorla(-ng) | / | ... bir kez daha tekrarla(-yın) |
| ... menga yordamlash(-ing) | / | ... bana yardım et(-din) |
| ... ruxsat et(-ing) | / | ... izin ver(-in) |
| ... bilishga (so'rashga) ... | / | ... öğrenmeye (sormaya, soru sormaya) ... |
| ... olishga (kirishga) ... | / | ... almaya (girmeye, içeri girmeye) ... |
| ... chiqishga (o'tishga) ... | / | ... çıkmaya, dışarı çıkmaya (geçmeye) ... |
| ... tutatib olishga (chekishga) ... | / | ... yakmaya, sigara yakmaya (içmeye, sigara içmeye) ... |
| Sendan (sizdan) ... iltimos qilaman | / | Senden (sizden) ... rica ediyorum |
| ... yordam berishing(-iz)ni ... | / | ... yardım etmeni(-zi) ... |
| ... biznikiga kirib, chaqirishing(-iz)ni ... | / | ... bize uğramanı(-zı) ... |
| ... meni uyg'otishing(-iz)ni ... | / | ... beni uyandırmanı(-zı) ... |
| ... bu yerda chekmaslikni ... | / | ... burada sigara içmemeyi ... |
| ... menga xalaqit bermaslikni ... | / | ... bana rahatsızlık vermemeni ... |
| ... bu yerda shovqin solmaslikni ... | / | ... burada gürültü yapmamayı ... |
| Meni biroz kuta olasizmi? | / | Beni biraz bekleyebilir misiniz? |
| Mening oldimga (biznikiga) kira olasizmi? | / | Benim yanıma (bize) uğrayabilir misiniz? |
| Menga yordam bera olasizmi? | / | Bana yardım edebilir misiniz? |
| Menga qo'ng'iroq qila olasizmi? | / | Bana telefon edebilir misiniz? |

## Xayrlashuv / Vedalaşma

| | | |
|---|---|---|
| Xayr! | / | Hoşça kal! |
| Yaxshi qol(-ing)! Yaxshi bor- (-ing)! | / | Hoşça kal (-ın)! Güle güle! |
| Ko'rishguncha! | / | Görüşmek üzere! |

Ertagacha xayr! / Yarına kadar hoşça kal!
Ertaga ko'rishguncha! / Yarın görüşmek üzere!
Ertaga ko'rishamiz! / Yarın görüşürüz!
Kechqurungacha xayr! / Akama kadar hoşça kal!
Kechqurun ko'rishguncha! / Akşama görüşmek üzere!
Kechqurun ko'rishamiz! / Akşama görüşürüz!
Tez orada ko'rishguncha! / Kısa zamanda görüşmek üzere!
O'zingizni asrang! / Kendinize iyi bakın (Kendinize dikkat edin)!
Allohga omonat bo'l(-ing)! / Allah'a emanet ol(-un)!
Yaxshi qol(-ing)! / Esen kal(-ın)!
Oq yo'l! Safaring(-iz) bexatar bo'lsin! / İyi yolculuklar! Yolun(-uz) açık olsun!
Yana ko'rishguncha! / Tekrar görüşmek üzere!
Yaxshi dam ol! / İyi dinlenmeler! (İyi istirahatler)
Iltimos, xat yozib tur(-ing)! / Lütfen mektup yaz(-ın)!
Bizning salomimizni aytib qo'y (-ing) / Bizim selamımızı söyle(-yin)

## Ajablanish / Şaşırma

Men hayronman / Ben şaşkınım
Men juda hayronman / Ben çok şaşkınım
Bu narsa meni ajablantiradi / Bu şey beni şaşırtıyor
Ajabo! Taajjub! / Acep! Hayret! (Allah Allah!)
Qiziq! G'alati! / İlginç! Acayip!
Tushunib bo'lmaydi! / Anlaşılmıyor!
Kim o'ylabdi deysiz! / Kim düşünebilirdi ki?
Ana yangilik! / Habere bak!
Ajoyib! / Harika! (Harikulade!)
Aql bovar qilmaydi! / İnanılır gibi değil!

| | | |
|---|---|---|
| Bo'lishi mumkin emas! | / | Olamaz! |
| Rostmi? | / | Gerçek mi? (Sahi mi?) |
| Rostdanmi? | / | Gerçekten mi? (Sahiden mi?) |
| Hazillashyapsan(-siz)mi? | / | Şaka mı yapıyorsun(-uz)? |
| Ana xolos! | / | Hoppala! |
| Voy Xudoyim! | / | Aman Tanrım! |
| Shundaymi? | / | Öyle mi? |
| Nahotki! | / | Hayret! |
| Qanday qilib? | / | Nasıl yani? |

## Yil fasllari, ob-havo / Mevsimler, hava durumu

| | | |
|---|---|---|
| Bahor | / | İlkbahar |
| Yoz | / | Yaz |
| Kuz | / | Sonbahar |
| Qish | / | Kış |
| Yil | / | Yıl (Sene) |
| Burnog'i yili, ilgarigi yilda | / | Geçen yılı, önceki yılda |
| Bu yil | / | Bu yıl |
| Kelasi yilda | / | Gelecek yılda |
| Oldimizdagi yil | / | Önümüzdeki yıl |
| Sizlarda iqlim qanday? | / | Sizde iklim nasıl? |
| Bizlarda issiq va quruq iqlim | / | Bizde sıcak ve kuru iklim |
| Bugun ob-havo qanday? | / | Bugün hava durumu nasıl? |
| Bugun havo yaxshi (yomon, issiq, sovuq, salqin, izg'irin, zax, tumanli, bulutli) | / | Bugün hava iyi (kötü, sıcak, soğuk, serin, rüzgârlı, nemli, sisli, bulutlu) |
| Bugun havoning harorati qanaqa? | / | Bugün hava sıcaklığı nasıl? |
| Uch daraja sovuq (Minus uch daraja) | / | Üç derece soğuk (Eksi üç derece) |

| | | |
|---|---|---|
| Yigirma gradus issiq (Plyus yigirma gradus) | / | Yirmi derece sıcak (Artı yirmi derece) |
| Ertaga (yaqin kunlarda) ob-havo qanday bo'ladi? | / | Yarın (önümüzdeki günler) için hava durumu tahmini nedir? |
| Ertaga yomg'ir yog'adi | / | Yarın yağmur yağıyor |
| Yaqin kunlarda havoning harorati pasayadi (ko'tariladi) | / | Önümüzdeki günlerde hava sıcaklığı düşüyor (artıyor) |
| Ob-havo byurosi nima xabar beryapti? | / | Meteoroloji Genel Müdürlüğü ne haber veriyor? |
| Havo aynib turibdi | / | Hava kararsız |
| Yog'ingarchilik, yog'in-sochinli havo | / | Yağışlılık, yağışlı hava |
| Yomg'ir yog'ayapti, qor yog'ayapti | / | Yağmur yağıyor, kar yağıyor |

## Sanoq va vaqt / Sayı ve zaman

| | | |
|---|---|---|
| Bir | / | Bir |
| Ikki | / | İki |
| Uch | / | Üç |
| To'rt | / | Dört |
| Besh | / | Beş |
| Olti | / | Altı |
| Yetti | / | Yedi |
| Sakkiz | / | Sekiz |
| To'qqiz | / | Dokuz |
| O'n | / | On |
| O'n bir | / | On bir |
| O'n ikki | / | On iki |
| O'n uch | / | On üç |
| O'n to'rt | / | On dört |
| O'n besh | / | On beş |

| | | |
|---|---|---|
| O'n olti | / | On altı |
| O'n yetti | / | On yedi |
| O'n sakkiz | / | On sekiz |
| O'n to'qqiz | / | On dokuz |
| Yigirma | / | Yirmi |
| Yigirma bir | / | Yirmi bir |
| O'ttiz | / | Otuz |
| Qirq | / | Kırk |
| Ellik | / | Elli |
| Oltmish | / | Altmış |
| Yetmish | / | Yetmiş |
| Sakson | / | Seksen |
| To'qson | / | Doksan |
| Yuz | / | Yüz |
| Bir yuz oltmish sakkiz | / | Yüz altmış sekiz |
| Ikki yuz | / | İki yüz |
| Uch yuz | / | Üç yüz |
| To'rt yuz | / | Dört yüz |
| Besh yuz | / | Beş yüz |
| Olti yuz | / | Altı yüz |
| Yetti yuz | / | Yedi yüz |
| Sakkiz yuz | / | Sekiz yüz |
| To'qqiz yuz | / | Dokuz yüz |
| Ming | / | Bin |
| Bir ming to'qqiz yuz sakson yetti | / | Bin dokuz yüz seksen yedi |
| Ikki ming | / | İki bin |
| O'n ming | / | On bin |
| Yuz ming | / | Yüz bin |

| | | |
|---|---|---|
| Birinchi | / | Birirnci (ilk) |
| Ikkinchi | / | İkinci |
| Uchinchi | / | Üçüncü |
| To'rtinchi | / | Dördüncü |
| Beshinchi | / | Beşinci |
| Oltinchi | / | Altıncı |
| Yettinchi | / | Yedinci |
| Sakkizinchi | / | Sekizinci |
| To'qqizinchi | / | Dokuzuncu |
| O'ninchi | / | Onuncu |
| O'n birinchi | / | On birinci |
| Yigirmanchi | / | Yirminci |
| Qirq beshinchi | / | Kırk beşinci |
| Yuzinchi | / | Yüzüncü |
| Bir ming to'qqiz yuz sakson yettinchi | / | Bin dokuz yüz seksen yedinci |
| Bir juft, bir par, ikkita | / | Bir çift, iki adet, iki tane |
| O'nta, o'ntalik | / | On adet, onluk |
| Yuzta, yuztalik, yuzlik | / | Yüz adet, yüzlük |
| Kasr | / | Kesir |
| Yarim | / | Yarım (buçuk) |
| Uchdan bir | / | Üçte bir |
| To'rtdan bir (chorak) | / | Dörtte bir (çeyrek) |
| Beshdan bir | / | Beşte bir |
| Sakkizdan bir (nimchorak) | / | Sekizde bir (yarim çeyrek) |
| Ikki butun, yettidan uch | / | İki bütün, yedide üç |
| Bir tiyin | / | Bir kuruş |
| Ikki (uch, to'rt) tiyin | / | İki (üç, dört) kuruş |
| O'n (yigirma) tiyin | / | On (yirmi) kuruş |

| | | |
|---|---|---|
| Ellik tiyin | / | Elli kuruş |
| Bir so'm | / | Bir som |
| So'm | / | Som |
| Bir yuz yigirma uch so'm, qirq to'qqiz so'm | / | Yüz yirmi üç som, kırk dokuz som |
| Ikki marta | / | İki defa |
| Uch marta | / | Üç defa |
| Men birinchi marta ko'rishim | / | Ben ilk defa görüyorum |
| Kun | / | Gün |
| Tush, tush vaqti, peshin | / | Öğle, öğle vakti, öğlen |
| Tong, ertalab | / | Sabah, sabahleyin |
| Oqshom, oqshom mahali | / | Akşam, akşamleyin |
| Tun, kechasi | / | Gece, geceleyin |
| Soat necha (bo'ldi)? | / | Saat kaç? |
| Ertalab soat sakkiz | / | Sabah saat sekiz |
| Kunduzi soat uch (soat 15) | / | Öğleden sonra saat üç (saat 15) |
| Kechqurun soat yetti (soat 19) | / | Akşam saat yedi (saat 19) |
| Soat sakkizdan o'n minut o'tdi | / | Saat sekizi on dakika geçiyor |
| Soat to'qqizdan o'n besh minut (chorak soat) o'tdi | / | Saat dokuzu on beş dakika (çeyrek) geçiyor |
| Soat to'qqizdan o'ttiz minut o'tdi (Soat to'qqiz yarim) | / | Saat dokuzu otuz dakika geçiyor (Saat dokuz buçuk) |
| Soat yettidan qirq besh minut o'tdi (O'n besh minuti kam sakkiz) | / | Saat yediyi kırk beş dakika geçiyor (Sekize çeyrek var) |
| Hali (juda) erta | / | Daha (çok) erken |
| Endi (juda) kech bo'ldi | / | Artık (çok) geç oldu |
| Mening soatim ... | / | Benim saatim ... |
| ... oldin ketadi | / | ... ileri gidiyor |
| ... kech qoladi | / | ... geri kalıyor |

| | | |
|---|---|---|
| ... to'xtab qolibdi | / | ... durmuş |
| ... to'xtab qoladi | / | ... duruyor |
| Soatimni burash esimdan chiqibdi | / | Saatimi kurmayı (başlatmayı) unutmuşum |
| Sen (siz) bilan qachon uchrashamiz? | / | Sen (siz)inle ne zaman buluşacağız? |
| Biz bugun kechqurun (ertaga kunduzi, ertalab soat o'nda, kechqurun soat yettida, tushda) uchrashamiz | / | Biz bugün akşam (yarın gündüz vakti, sabah saat onda, akşam saat yedide, öğlen) buluşacağız |
| Sen (siz) qachon kelasan(-siz)? | / | Sen (siz) ne zaman geleceksin(-iz)? |
| Men o'n daqiqadan keyin (bir soatdan keyin, kechqurun, ertaga, yarim soatdan keyin) kelaman | / | Ben on dakika sonra (bir saat sonra, akşamleyin, yarın, yarım saat sonra) geleceğim |
| Bugun nechanchi sana? | / | Bugün hangi tarih? |
| Bugun o'ninchi avgust (1998-yil)? | / | Bugün on ağustos (1998-yıl) |
| Sen (siz) qaysi sanada kelding- (-iz)? | / | Sen (siz) hangi tarihte geldin- (-iz)? |
| Siz qaysi sanada keldingiz? | / | Siz hangi tarihte geldiniz? |
| Men beshinchi iyulda keldim | / | Ben beş temmuzda geldim |
| Bugun qanaqa kun? | / | Bugün günlerden ne? |
| Bugun dushanba (juma, ish kuni, dam olish kuni) | / | Bugün pazartesi (cuma, mesai günü, tatil günü) |
| Sen (siz) qachon imtihon topshirasan(-siz)? | / | Sen (siz) ne zaman sınava giriyorsun(-uz)? |
| Men seshanba kuni (chorshanba kuni) imtihon topshiraman | / | Ben salı günü (Çarşamba günü) sınava gireceğim |
| Sen (siz) qaysi oyda ta'tilga chiqasan(-siz)? | / | Sen (siz) hangi ayda tatile çıkıyorsun(-uz)? |
| Men iyunda ta'til chiqaman | / | Ben haziranda tatile çıkıyorum |
| U bilan ... ko'rishamiz | / | Onunla ... görüşeceğiz |
| ... ikki kundan keyin... | / | ... iki gün sonra... |
| ... bir necha kundan keyin ... | / | ... birkaç gün sonra ... |
| ... kelasi haftada ... | / | ... gelecek hafta ... |

## Ro'zg'or, ro'zg'or anjomlari / Ev bark, ev eşyaları

| | | |
|---|---|---|
| Biz yaqinda yangi ikki xonali kvartira oldik | / | Biz geçenlerde iki odalı yeni daire aldık |
| Biz yaqinda yangi (boshqa) kvartiraga ko'chib o'tamiz | / | Biz yakında yeni (başka) daireye taşınacağız |
| Men kichikroq xonani ijaraga olishim kerak | / | Benim biraz küçük oda kiralamam gerekiyor |
| Bu kvartiraning sahni qancha? | / | Bu dairenin metrekaresi (alanı) ne kadar? |
| Kvartira uchun oyiga necha pul to'lanadi? | / | Daire için ayda kaç para ödeniyor? |
| Kvartirang(-iz) nechanchi qavatda? | / | Dairen(-iz) kaçıncı katta? |
| Kvartira derazasi qayoqqa qaragan - ko'chagami yoki hovligami? | / | Dairenin penceresi nereye bakıyor - sokağa mı ya bahçeye mi? |
| Kvartirada qanday qulayliklar bor? | / | Dairede ne gibi olanaklar var? |
| Uy necha qavatli? | / | Ev kaç katlı? |
| Uy boshqarmasi (pasport stoli) qachon ishlaydi? | / | Apartman yönetimi (pasaport masası) ne zaman çalışıyor? |
| Men propiska qildirishim kerak | / | Benim oturma izni almam gerekiyor |
| Men uy boshqarmasidan ma'lumotnoma olishim kerak | / | Benim apartman yönetiminden beige almam gerekiyor |
| Men hozircha qarindoshlarimning uyida yashayman | / | Ben şimdilik akrabalarımın evinde yaşıyorum |
| Men kvartiraning kalitini yo'qotib qo'ydim | / | Ben dairenin anahtarını kaybettim |
| Mening qulfim buzilib qoldi | / | Benim kilidim bozuldu |
| Men yangi qulf qo'ydirishim (tuzatishim, almashtirishim) kerak | / | Benim yeni kilit taktırmam (tamir etmem, değiştirmem) gerekiyor |
| Men ... chaqirishim kerak | / | Benim ... çağırmam gerekiyor |
| ... duradgorni ... | / | ... marangozu ... |
| ... slesarni ... | / | ... çilingiri ... |

... santexnikni ... / ... tesisatçıyı ...

... elektromontyorni ... / ... elektrikçiyi ...

Bizda elektr yonmayapti / Bizim elektriğimiz yanmıyor

Kranimiz suv oqizyapti / Musluğumuz su damlatıyor

Axlat quvuri tiqilib qolibdi / Atık borusu tıkanıvermiş

Oynamiz sinib qoldi / Camımız kırıldı

Duxovkamiz buzilib qoldi / Fırınımız bozuldu

Uydan qachon chiqasan(-siz)? / Evden ne zaman çıkıyorsun(-uz)?

Uyga qachon qaytasan(-siz)? / Eve ne zaman dönüyorsun(-uz)?

Qo'noq joying(-iz) bormi? / Kalacak yerin(-iz) var mı?

Qayerga joylashding(-iz)? / Nereye yerleştin(-iz)?

Sen (siz) propiskadan o'tishing-(-iz) kerak / Senin (sizin) oturma izni almanız gerekiyor

Sen (siz) tezda ... kirishing(-iz) kerak / Senin (sizin) hemen. . . gitmen(-iz) gerekiyor

... uy boshqarmasiga ... / ... apartman yönetimine ...

... pasport stoliga ... / ... pasaport masasına ...

... militsiya bo'limiga ... / ... karakola ...

Sen (siz) tezda kvartira ijarasini (elektr haqqini) to'lashing(-iz) kerak / Senin (sizin) acilen daire kirasını (elektrik parasını) ödemen(-iz) gerekiyor

Siz uyda nima qilasiz? / Siz evde ne yapıyorsunuz?

Ancha yumushim bor. Uydaligimda ro'zg'or ishlari bilan band bo'laman / Epey işim var. Evdeyken ev işleriyle meşgul oluyorum

Uy yig'ishtiraman, supuraman yoki pol yuvaman / Evi topluyorum, süpürüyorum veya tabanı paspaslıyorum

Yakshanba kunlari bolalarim bilan sayr qilgani boraman / Pazar günleri çocuklarımla geziye gidiyorum

### *Lug'at / Sözlük*

| | | |
|---|---|---|
| Ichki kiyim | / | İç çamaşırı |
| Parda | / | Perde |
| Yostiq jildi | / | Yastık kılıfı |
| Choyshab | / | Çarşaf |
| Yostiq | / | Yastık |
| Lagan | / | Leğen |
| Pichoq | / | Bıçak |
| Kapgir, chovli | / | Kevgir, süzgeç |
| Likop | / | Tabak |
| Latta | / | Bez |
| Qoshiq | / | Kaşık |
| Sho'rva | / | Çorba |
| Kitob javoni | / | Kitaplık |
| Deraza | / | Pencere |
| Guldon | / | Vazo |
| Gultuvak | / | Saksı |
| Gullar | / | Çiçekler |
| Soat | / | Saat |
| Supurgi | / | Süpürge |
| Xarid | / | Satın alma |
| Kiyimlarni dazmollash | / | Giysileri ütüleme |
| Tikmoq | / | Dikmek |
| Ovqat pishirmoq | / | Yemek pişirmek |
| Ovqat qilmoq | / | Yemek yapmak |
| Ovqat tayyorlamoq | / | Yemek hazırlamak |
| Qovurmoq | / | Kızartmak |
| Idish-tovoq yuvmoq | / | Bulaşık yıkamak |

| | | |
|---|---|---|
| Choy damlamoq | / | Çay demlemek |
| Qaynatmoq | / | Kaynatmak |
| Eshikni berkitmoq | / | Kapıyı kapatmak |
| Eshikni ochmoq | / | Kapıyı açmak |
| Pol yuvmoq | / | Zemini yıkamak (tabanı paspaslamak) |
| Supurmoq | / | Süpürmek |
| Sotib olmoq | / | Satın almak |
| Kir yuvish | / | Çamaşır yıkamak |
| Pechkani yoqmoq | / | Sobayı yakmak |
| Pechkaga o'tin yoqmoq | / | Sobaya odun yakmak |
| Oziq-ovqatni saqlamoq | / | Gıdaları muhafaza etmek |
| Tozalamoq | / | Temizlemek |

## Dam olish / Dinlenme

| | | |
|---|---|---|
| Sen (siz), odatda, qayerda dam olasan(-siz)? | / | Sen (siz) genellikle nerede dinleniyorsun(-uz)? |
| Sen, odatda, ta'tilni qanday o'tkazasan? | / | Sen genellikle tatili nasıl geçirirsin? |
| Odatda, ta'tilingizni qanday o'tkazasiz? | / | Genellikle tatilinizi nasıl geçirirsiniz? |
| Men, odatda, ta'tilimni ... o'tkazaman | / | Ben genellikle tatilimi ... geçiririm |
| ... dengizda ... | / | ... denizde ... |
| ... qishloqda ... | / | ... köyde ... |
| ... dam olish uyida ... | / | ... dinlenme evinde ... |
| ... tog'da ... | / | ... dağda ... |
| Bu yil qachon ta'tilga chiqmoqchisan(-siz)? | / | Bu yıl ne zaman tatile çıkacaksın (-ız)? |
| Bu yil ta'tilingni qanday o'tkazmoqchisan(-siz)? | / | Bu sene tatilini nasıl geçirecek-sin(-iz)? |

| | | |
|---|---|---|
| Men ta'tilda ... | / | Ben tatilde ... |
| ... dam olish uyiga bormoqchiman | / | ... dinlenme evine gideceğim |
| ... dachada (oilam bilan birga) dam olmoqchiman | / | ... yazlıkta (ailemle birlikte) dinleneceğim |
| ... sayohatga jo'namoqchiman | / | ... geziye gideceğim |
| ... chet elga bormoqchiman | / | ... yurt dışına gideceğim |
| Sen bo'sh vaqtlaringda nima ish qilasan? | / | Sen boş zamanlarında ne iş yapıyorsun? |
| Bo'sh vaqtingizda nima ish qilasiz? | / | Boş zamanınızda ne iş yapıyorsunuz? |
| Bo'sh vaqtingni(-izni) qanday o'tkazasan(-siz)? | / | Boş zamanını (-zı) nasıl geçiriyorsun(-uz)? |
| Bo'sh vaqtlarimda men ... | / | Boş zamanlarımda ben ... |
| ... kino (teatr)ga boraman | / | ... sinema (tiyatro)ya gidiyorum |
| ... sport bilan shug'ullanaman | / | ... sporla uğraşıyorum |
| ... futbol (voleybol) o'ynayman | / | ... futbol (voleybol) oynuyorum |
| ... chang'ida (konkida) uchaman | / | ... kayak (paten) kayıyorum |
| ... konsertlarga (ko'rgazmalarga) boraman | / | ... konserlere (sergilere) gidiyorum |
| ... kitob (jurnal) o'qiyman | / | ... kitap (dergi) okuyorum |
| ... radio (musiqa) eshitaman | / | ... radyo (müzik) dinliyorum |
| ... televizor ko'raman | / | ... televizyon izliyorum |
| ... do'stlarim bilan uchrashaman | / | ... arkadaşlarımla buluşuyorum |
| Bugun kechqurun bo'shmisan(-siz)? | / | Bugün akşam müsait misin(-iz)? |
Bu razmer sizga mos kelmaydi / Bu beden size göre değil

Bu fason sizga yarashadi (yarashmaydi) / Bu tarz size yakışıyor (yakışmıyor)

Bu sizga kaltalik (uzunlik, kattalik, kichiklik, kenglik, torlik) qiladi / Bu size kısa (uzun, büyük, küçük, geniş, dar) gelir

Mana bunisi boshqa model / İşte bu farklı bir tarz

Boshqa modelni kiyib ko'ring / Farklı bir tarz deneyin

Bu narsa hozir bizda (sotuvda) yo'q / Bu ürün şu anda bizde (satışta) yok

Kelasi haftada kiring / Önümüzdeki hafta uğrayın

Menga bir haftadan so'ng qo'ng'iroq qiling / Bana bir hafta sonra telefon edin

## Gul magazinida / Çiçekçide

| | | |
|---|---|---|
| Men guldasta olmoqchi edim | / | Ben buket alacaktım |
| Ertaga olish uchun guldasta buyursam bo'ladimi? | / | Yarın için buket siparişi verebilir miyim? |
| Sizda ... bormi? | / | Sizde ... var mıdır? |
| ... atirgul ... | / | ... gül ... |
| ... binafsha ... | / | ... menekşe ... |
| ... chinnigul ... | / | ... karanfil ... |
| ... namozshomgul ... | / | ... akşamsefası (gecesefası) ... |
| ... lola ... | / | ... lale ... |
| ... gulxayri ... | / | ... ebegümeci ... |
| ... kartoshkagul ... | / | ... dalya (yıldız çiçeği) ... |
| ... qo'qongul ... | / | ... pat (yıldızpatı) ... |
| ... tabiiy gullar ... | / | ... doğal çiçekler ... |
| ... sun'iy gullar ... | / | ... yapay çiçekler ... |
| ... ilongul ... | / | ... glayöl (kuzgunkılıcı) ... |
| ... xrizantema ... | / | ... kasımpatı (krizantem) ... |
| ... yasmin ... | / | ... yasemin ... |
| ... boychechak ... | / | ... kardelen ... |
| ... bo'tako'z ... | / | ... unutmabeni ... |
| ... marvaridgul ... | / | ... inci çiçeği (müge) ... |
| ... moychechak ... | / | ... papatya ... |

## Xo'jalik mollari / Ev aletleri

| | | |
|---|---|---|
| ... bo'limi qayerda? ... bo'limiga qayerdan borish mumkin? | / | ... reyonu nerede? ... reyonuna nereden gidilebilir? |
| Men ... xarid qilmoqchiman | / | Ben ... satın alacaktım |
| Men ... xarid qilishim kerak | / | Benim ... satın almam gerekiyor |
| Sotuvda ... bormi? | / | Satışta ... var mıdır? |
| Sotuvda ... qachon bo'ladi? | / | Satışta ... ne zaman olacak? |
| Men ... ko'rsam bo'ladimi? | / | Ben ...-a (-e, -ya, -ye, -na, -ne) bakabilir miyim? |
| ... bu tranzistorni (magnitofonni) ... | / | ... bu transistōra (teybe) ... |
| ... mana bu televizorni (apparatni) ... | / | ... işte bu televizyona(cihaza) ... |
| ... mana bu xolodilnikni (changyutgichni) ... | / | ... işte bu buzdolabına (elektrikli süpürgeye) ... |
| ... to'g'nag'ich ... | / | ... toplu iğne (çengelli iğne) ... |
| ... nina, igna ... | / | ... iğne ... |

## Sport mahsulotlari / Spor malzemeleri

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, ... (menga) ko'rsating | / | Lütfen (bana) ... gösterin |
| ... to'p, koptok ... | / | ... top ... |
| ... futbol to'pi ... | / | ... futbol topu ... |
| ... voleybol to'pi ... | / | ... voleybol topu ... |
| ... basketbol to'pi ... | / | ... basketbol topu ... |
| ... tennis to'pi ... | / | ... tenis topu ... |
| Menga ... bering | / | Bana ... verin |
| ... to'r, setka ... | / | ... ağ ... |
| ... badminton setkasi ... | / | ... badminton ağı ... |
| ... stol tennisi raketkasi ... | / | ... masa tenisi raketi ... |
| ... stol tennisi koptokchasi ... | / | ... masa tenisi topu ... |

| | | |
|---|---|---|
| Kechirasiz, bu ... qancha turadi? | / | Affedersiniz, bu ... ne kadar? |
| ... konki ... | / | ... paten ... |
| ... yugurish konkisi ... | / | ... koşu pateni (kros pateni) ... |
| ... chang'i ... | / | ... kayak ... |
| ... yugurish chang'isi ... | / | ... koşu kayağı (kros kayağı) ... |
| ... chang'i tayog'i ... | / | ... kayak çubuğu ... |
| ... chang'i bog'ichi ... | / | ... kayak bağı ... |
| ... boksyorlar qo'lqopi ... | / | ... boks eldiveni ... |
| ... sport kostyumi ... | / | ... eşofman ... |
| ... sport maykasi ... | / | ... spor atleti (spor fanilası) ... |
| ... sport trusisi ... | / | ... spor külotu (spor şortu) ... |
| ... suzish qalpoqchasi ... | / | ... yüzme şapkası (yüzme bonesi) ... |
| ... qopko'rpa ... | / | ... uyku tulumu ... |
| ... ikki kishilik palatka ... | / | ... iki kişilik çadır ... |
| ... damlama matras ... | / | ... şişme yatak (hava yatağı) ... |
| ... qarmoq ... | / | ... olta ... |
| ... ilgak ... | / | ... olta iğnesi ... |
| ... po'pak ... | / | ... şamandıra (olta şamandırası) ... |
| ... poygada miniladigan velosiped ... | / | ... yarış bisikleti ... |
| ... safarda miniladigan velosiped ... | / | ... yol bisikleti ... |
| ... yig'ma velosiped ... | / | ... katlanır bisiklet ... |

## Qog'oz-qalam mollari / Kırtasiye

| | | |
|---|---|---|
| Mana bu ... qancha turadi? | / | İşte bu ...-in(-ın, - un, -ün) fiyatı ne kadar? |
| ... ruchka ... | / | ... tükenmez kalem ... |
| ... sharikli ruchka ... | / | ... tükenmez kalem ... |

... avtoruchka ... / ... dolma kalem ...

... qalam ... / ... kalem (kurşunkalem, kara kalem) ...

... yumshoq qalam ... / ... yumuşak kurşun kalem ...

... qattiq qalam ... / ... sert kurşun kalem ...

... rangli, rasm qalam ... / ... renkli kurşun kalem ...

... flomaster ... / ... keçeli kalem ...

... sterjen ... / ... spiral, telcik (tükenmez kalem için) ...

... qog'oz ... / ... kâğıt ...

... chizmachilik qog'ozi ... / ... çizim kâğıdı ...

... daftar ... / ... defter ...

... to'g'ri chiziqli daftar ... / ... çizgili defter ...

... katak daftar ... / ... kareli defter ...

... yondaftar ... / ... cep defteri (bloknot, not defteri) ...

... albom ... / ... resim defteri ...

... papka ... / ... dosya, klasör ...

... maktab papkasi ... / ... okul çantası ...

... siyoh ... / ... mürekkep ...

... chizg'ich ... / ... cetvel ...

... o'chirg'ich ... / ... silgi ...

... yelim ... / ... tutkal ...

... mo'yqalam ... / ... fırça ...

... skrepka ... / ... ataş ...

... piston ... / ... raptiye ...

## Zargarlik mollari / Ziynet eşyaları

| | | |
|---|---|---|
| Menga ... kerak | / | Bana ... lazım |
| ... uzuk ... | / | ... yüzük ... |
| ... tilla uzuk ... | / | ... altın yüzük ... |
| ... nikoh uzugi ... | / | ... alyans (nişan yüzüğü) ... |
| ... kumush uzuk ... | / | ... gümüş yüzük ... |
| ... qimmatbaho toshli uzuk ... | / | ... değerli taşlı yüzük ... |
| Men brilliantli ... qarayapman | / | Ben pırlantalı ... bakıyorum |
| ... isirg'a, zirak ... | / | ... küpe ... |
| ... kulon ... | / | ... kolye ... |
| ... zanjir ... | / | ... zincir ... |
| ... bilakuzuk ... | / | ... bilezik ... |
| ... broshka ... | / | ... broş ... |
| ... munchoq ... | / | ... boncuk ... |

# 5-QISM. 5. BÖLÜM

## Turkiyada tibbiy xizmat

Bu bo'limda Turkiyada yashayotgan chet el fuqarolarining tibbiy yordam olish tartibi, soğlik sug'urtasidan foydalanishi, qanday ijtimoiy huquqlari borligi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Turkiya Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi chet el fuqarosining sog'liqni saqlash huquqi ushbu mamlakat bilan tuzilgan xalqaro shartnomalari asosida kafolatlanadi.

Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasiga "Har bir shaxs ijtimoiy ta'minotdan foydalanish huquqiga egadir" jumlalari kiritilgan. Ushbu bayonot chet elliklarning ijtimoiy huquqlarini ham o'z ichiga oladi.

"Ijtimoiy sug'urtalar va umumiy tibbiy sug'urta to'g'risidagi qonun" ham ushbu sohaga oiddir. Qonunga muvofiq: "O'zaro kelishuv asosida xalqaro ijtimoiy sug'urta shartnomasi bo'lgan mamlakatlarning fuqarolaridan tashqari, chet el fuqarolaridan xizmat shartnomasi bo'lgan xodimlar 4-moddaning "a" bandiga (4/a) muvofiq sug'urtalangan hisoblanadi".

Turkiyaliklar va chet el fuqarolari uchun tibbiy xizmatlardan foydalanishning ikkita shakli mavjud:

1. (Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urta.
2. Xususiy (shaxsiy) sog'liqni saqlash sug'urtasi.

Ulardan umumiy tibbiy sug'urta davlat tomonidan qoplanadi. Xususiy tibbiy sug'urta esa, ma'lum miqdorda oylik to'lov amalga oshirilgach, sug'urta kompaniyasidan olinadi. Shuningdek, shaxsiy klinikasiga ega shifokorlar ham bo'lib, ular sug'urtalashda ishtirok etmaydilar. Ular o'zlarining to'lov tariflariga egadirlar.

Ikki tomonlama ijtimoiy ta'minot shartnomasi nima? Ikki yoki undan ko'p tomonlama ijtimoiy ta'minot shartnomalari ushbu shartnomani imzolagan mamlakatlar fuqarolarining ijtimoiy ta'minot huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladi. Agar ikki davlat o'rtasida shunday shartnoma mavjud bo'lsa, har ikki mamlakat fuqarolari keng ko'lamda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega hisoblanadilar.

Chet elliklar masalasidagi asosiy qoidaga ko'ra, ular ish faoliyatlarini boshlagan kundan e'tiboran ushbu vaziyatni ijtimoiy ta'minot boshqarmasiga bildirishlari kerak. (Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urtaga egaligi tufayli shaxs tibbiy yordam olish, sog'liq sug'urtasi qamrab olgan xizmat-

lardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar, ikki tomonlama ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi bitimning ishtirokchilari bo'lgan davlatlar fuqarolari kelgan davlatlarida sug'urtali bo'lsalar, shartnomada belgilangan muddatda Turkiyada emas, balki o'z mamlakatlarida sug'urtali hisoblanadilar.

Umumiy tibbiy sug'urtadan foydalanish uchun chet el fuqarosi shaxsan eng yaqin ijtimoiy ta'minot markaziga murojaat qilishi kerak. Butun Turkiya miqyosida ushbu dasturni amalga oshirish uchun jami 600 dan ortiq ijtimoiy ta'minot markazi mavjud.

Quyidagi xorij fuqarolari (Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urtadan foydalanish imkoniyatiga egadirlar:

* Turkiyada istiqomat uchun ruxsatnoma olgan chet el fuqarolari;

* Turkiyadan tashqari boshqa biror davlatda sug'urtasi bo'lmagan chet el fuqarolari;

* Turkiyada bir yildan uzoq muddat istiqomat qilgan va bu muddatdan so'ng ariza bilan murojaat qilgan xorijiy fuqarolar.

(Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urtadan foydalanish huquqiga ega bo'lgan chet el fuqarosining:

* turmush o'rtog'i;

* 18 yoshgacha bo'lgan farzandi (yoki farzandlari);

* litsey yoki unga tenglashtirilgan ma'lumotga ega bo'lgan, 20 yoshga yetmagan va oila qurmagan farzandi (yoki farzandlari);

* universitetda tahsil olayotgan, 25 yoshgacha bo'lgan va oila qurmagan farzandi (yoki farzandlari);

* yoshidan qat'iy nazar, nogironligi aniqlangan, oila qurmagan farzandi (yoki farzandlari);

* muassasa tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiqligi aniqlangan, tirikchiligi chet el fuqarosi tomonidan ta'minlanayotgan ota-ona shaxsning tibbiy sug'urtasidan foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, chet el fuqarolari sog'liq sug'urtasini rasmiylashtirish masalalariga "Ish uchun ruxsatnoma" ("Çalışma izni") ishlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda kirishadi. Zero, ishlash uchun ruhsat berish ishlari amalga oshirilganidan keyin umumiy tibbiy sug'urta masalalari amalga oshirilishi kerakligi ko'zda tutilgan. Ishlash uchun ruxsat berilmasidan oldin chet el fuqarolarining (Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urtasini amalga oshirib bo'lmasligi nazarda tutilgan holda; ishlash uchun izn olinganidan keyin ish beruvchi tomonidan chet ellik ishchiga sog'liq sug'urtasi qilinishi kerak. Shu ma'noda ishlash uchun ruxsati bo'lgan chet ellik fuqaro (Davlat miqyosidagi) umumiy tibbiy sug'urtadan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan hisoblanadi.

## Vrach-terapevt qabulida / İç hastalıkları uzmanı muayenesinde

| | | |
|---|---|---|
| Men terapevtga ko'rinmoqchiman | / | Ben iç hastalıkları uzmanına muayene olacaktım |
| Men terapevtga yozilmoqchiman | / | Ben iç hastalıkları uzmanından randevu alacaktım |
| Men terapevtga kirmoqchiman | / | Ben iç hastalıkları uzmanı randevusuna girecektim |
| Iltimos, meni terapevt qabuliga yozib qo'ying | / | Lütfen, beni iç hastalıkları uzmanı randevusuna yazın |
| Terapevt qachon qabul qiladi | / | İç hastalıkları uzmanı ne zaman muayeneye başlıyor? |
| Terapevt qaysi xonada qabul qilyapti? | / | İç hastalıkları uzmanı hangi odada muayene ediyor? |
| Bu xonaga (kiruvchilarning) oxiri kim? | / | Bu odaya (gireceklerin) sırasının sonu kimdir? |
| Mening (biroz) tobim qochib turibdi | / | Ben (biraz) iyi hissetmiyorum |
| Men kasalman | / | Ben hastayım |
| (Mening) mazam bo'lmay turibdi | / | (Ben) rahatsızım |
| Boshim aylanyapti | / | Başım dönüyor |
| O'zimni yomon his qilyapman | / | Kendimi kötü hissediyorum |
| Mening ... og'riyapti | / | Benim ... ağrıyor |
| ... qo'lim (oyog'im) ... | / | ... kolum (bacağım) ... |
| ... boshim (tomog'im) ... | / | ... başım (boğazım) ... |
| ... yuragim (qornim) ... | / | ... kalbim (karnım) ... |
| ... biqinim (jigarim) ... | / | ... uyluğum (karaciğerim) ... |
| Mening ... (qattiq) og'riq bor | / | Benim ... (şiddetli) ağrı var |
| ... qornimda (oshqozonimda) ... | / | ... karnımda (midemde) ... |
| ... ko'kragimda (tizzamda) ... | / | ... göğsümde (dizimde) ... |
| Mening ko'nglim (qattiq) ayniyapti | / | Benim midem (şiddetli) bulanıyor |
| Men qayt qildim | / | Ben istifra ettim |

| | | |
|---|---|---|
| Mening ichim (qattiq) ketyapti | / | Ben ishal (şiddetli) geçiriyorum |
| Men biror narsadan zaharlangan bo'lsam kerak | / | Ben bir şeyden zehirlenmiş olabilirim |
| Mening issig'im bor (issig'im baland) | / | Benim ateşim var (ateşim yüksek) |
| Men (qattiq) yo'talyapman, tumov bo'libman | / | Ben (şiddetle) öksürüyorum, nezle olmuşum |
| Men shamollagan bo'lsam kerak | / | Ben üşütmüş olmalıyım |
| Mening ... chiqib ketdi (shikastlandi) | / | Benim ... çıkıverdı (burkuldu) |
| ... qo'lim (oyog'im) ... | / | ... kolum (bacağım) ... |
| ... barmog'im (yelkam) ... | / | ... parmağım (omuzum) ... |
| Men ... urib oldim | / | Ben ... çarptım |
| ... ko'kragimni (tirsagimni) ... | / | ... göğsümü (dirseğimi) ... |
| ... yelkamni (tizzamni) ... | / | ... omzumu (dizimi) ... |
| Doktor, menga nima bo'lgan, qanaqa kasalman? Iltimos, aytib bering | / | Doktor, benim neyim var, nasıl hastayım? Lütfen söyler misiniz |
| Sizni nima bezovta qiladi? | / | Sizi ne rahatsız ediyor? |
| Sizga nima bo'ldi? | / | Size ne oldu? |
| Qayeringiz og'riydi? | / | Nereniz ağrıyor? |
| Ahvolingiz qalay? | / | Durumunuz nasıl? |
| Isitmangiz bormi? | / | Ateşiniz var mı? |
| Og'zingizni ochib, tilingizni ko'rsating | / | Ağzınızı açın ve dilinizi gösterin |
| "A-a-a..." - deng | / | "A-a-a..." - deyin |
| Belingizgacha yechining | / | Belinize kadar soyunun |
| Men sizni ko'rmoqchiman | / | Ben sizi muayene edeceğim |
| Nafas olishingizni eshitib ko'rmoqchiman | / | Nefes alışınızı dinlemek istiyorum |
| Nafas oling (nafas olmang) | / | Nefes alın (nefes almayın) |
| Nafas oling va nafas chiqaring | / | Nefes alın ve nefes verin |

| | | |
|---|---|---|
| Kushetkaga yoting | / | Kanepeye uzanın |
| Bu yeringiz og'riydimi? | / | Buranız ağrıyor (acıyor) mu? |
| Isitmani o'lchang | / | Ateşiölçün |
| Qani, qon bosimingizni o'lchab ko'raylik-chi | / | Hadi tansiyonunuzu kontrol edelim |
| (Sizning) isitmangiz ko'tarilgan | / | (Sizin) ateşiniz yükselmiş |
| (Sizning) qon bosimingiz ko'tarilgan | / | (Sizin) tansiyonunuz yükselmiş |
| Angina (gripp) bo'libsiz | / | Anjin (grip) olmuşsunuz |
| Sizning o'pkangiz shamollabdi | / | Siz zatürre olmuşsunuz |
| Siz tumov bo'libsiz | / | Siz nezle olmuşsunuz |
| Sizning qo'lingiz singan (oyog'ingiz chiqqan) | / | Sizinin kolunuz kırılmış (bacağınız çıkmış) |
| Siz ovqatdan zaharlangansiz | / | Siz yemekten zehirlenmişsiniz |
| Sizda jiddiy kasallik yo'q | / | Sizde ciddi bir hastalık yok |
| Siz rentgenga tushishingiz, qon va siydikni analiz qildirishingiz kerak | / | Sizin röntgen çektirmeniz, kan ve idrar tahlilleri yaptırmanız gerekiyor |
| Mana sizga rentgen va analizlarga yo'llanma | / | İşte size röntgen ve tahliller için evrak |
| Siz jarrohga (nevropatologga) ko'rinishingiz kerak | / | Siz cerraha (nöroloğa) görünmelisiniz |
| Siz ko'rpa-yostiq qilib uyda yotishingiz kerak | / | Sizin evde yatak istirahatina uymanız gerekiyor |
| Sizga kassalik varaqasini yozib beraman | / | Size hastalık izin belgesi (rapor) yazacağım |
| Men kasallik varaqangizni yana uch kunga uzaytirib beraman | / | Ben hastalık izin belgenizi (raporunuzu) üç gün daha uzatacağım |
| Qabulimga yana bir marta (ertaga, uch kundan keyin) keling | / | Muayeneye bir kez daha (yarın, üç gün sonra) tekrar gelin |
| Mana sizga retsept | / | İşte size reçete |
| Mana sizga dori olishga retsept | / | İşte size ilaç reçetesi |

| | | |
|---|---|---|
| Ro'yxatga olish xonasida retseptga muhr bostiring | / | Kayıt odasında reçeteyi damgalatın |
| Dorini kuniga uch mahal: ovqatdan keyin (ovqatdan oldin, nahorda) ichasiz | / | İlacı günde üç kez: yemekten sonra (yemekten önce, sabahleyin) alıyorsunuz |
| Bu dorini retseptsiz olish mumkin | / | Bu ilaç reçetesiz satın alınabilir |
| (Bugun) men o'zimni yaxshi his qilyapman | / | (Bugün) ben kendimi iyi hissediyorum |
| Mening (boshqa) hech qayerim og'rimayapti | / | Benim (bunun dışında) hiçbir yerim ağrımıyor |
| Bu dorining menga nafi tegayapti (nafi tegmayapti) | / | Bu ilacın bana yararı dokunuyor (yararı dokunmuyor) |

## Tish doktori qabulida / Diş hekimi muayenesinde

| | | |
|---|---|---|
| Tish doktorining xonasi qayerda? | / | Diş hekiminin odası nerede? |
| Iltimos, tishlarimni tekshirib ko'ring | / | Lütfen dişlerimi kontrol edin |
| Mening tishim og'riyapti | / | Benim dişim ağrıyor |
| Tishimning plombasi tushib qoldi | / | Dişimin dolgusu düştü |
| Tishimning koronkasi sinib qoldi | / | Dişimin protez kaplaması kırıldı |
| Mening milkim shishib ketdi | / | Benim diş etlerim şişti |
| Men ... kerak | / | Benim ... gerekiyor |
| ... tishimni oldirishim ... | / | ... dişimi çektirmem ... |
| ... plomba qo'ydirishim ... | / | ... dolgu yaptırmam ... |
| ... koronkani almashtirishim ... | / | ... protez kaplamasını değiştirmem ... |
| ... tishimni toshlardan tozalatishim ... | / | ...dişimin taşlarını temizletmem... |
| Og'zingizni kattaroq oching | / | Ağzınızı daha geniş açın |
| Qaysi tishingiz og'riyapti? | / | Hangi dişiniz ağrıyor? |
| Shu yer og'riyaptimi? | / | Burası acıyor mu? |
| Og'zingizni yoping | / | Ağzınızı kapatın |

| | | |
|---|---|---|
| Og'izni chayib, tupurib tashlang | / | Ağzınızı çalkalayıp tükürün |
| Men vaqtincha plombalab qo'yaman | / | Ben geçici olarak dolgu koyacağım |
| Ikki (uch) kundan keyin kelasiz | / | İki (üç) gün sonra geleceksiniz |
| Bu tishni olib tashlash kerak | / | Bu dişin çekilmesi gerekiyor |
| Bu tishingizga koronka qo'yish kerak | / | Bu dişe protez kaplama koymak gerekiyor |

## Ko'z doktori qabulida / Göz doktoru muayenesinde

| | | |
|---|---|---|
| Iltimos, ko'zimni (ko'rish qobiliyatimni) tekshiring | / | Lütfen gözümü (görme yeteneğimi) kontrol edin |
| Mening ko'zim xiralashdi | / | Benim gözüm bulanıklaştı |
| Iltimos, menga ko'zoynak tanlab bering | / | Lütfen bana gözlük seçseniz |
| Menga kuchliroq ko'zoynak kerak | / | Bana daha güçlü gözlük lazım |
| Men yaqinni (uzoqni) yaxshi ko'raman | / | Ben yakını (uzağı) iyi görüyorum |
| Mana bu jadvalga qarab harflarni ayting | / | İşte bu tabloya bakarak harfleri söyleyin |
| Mana ko'zoynak uchun retsept | / | İşte gözlük için reçete |
| Siz kontaktli linza taqqaningiz ma'qul | / | Sizin kontak lens takmanız daha iyi |
| Ko'z bosimingizni tekshirib ko'raylik-chi | / | Göz tansiyonunuzu kontrol edelim |

# 6-QISM. 6. BÖLÜM

## MAQOLLAR VA MATALLAR / ATASÖZLERI VE DEYİMLER

Har bir xalqning hayot tajribalarida orttirilgan, vaqtlar mobaynida sayqallanib puxta lug'aviy ma'no kasb etgan o'z maqol, matal va iboralari mavjud. Maqol va matallar ishlatilish o'rniga ko'ra xalqning kundalik turmushidan keng o'rin oladi. Kishilar biror narsa yoki voqyea-hodisani lo'nda va ta'sirli tushuntirish uchun tabiiy ravishda maqol va iboralardan foydalanishga odatlanishgan. Maqsad va vazifalariga ko'ra ular turlicha bo'lishi mumkin. Biz quyida turk xalqi turmushida faol ishlatiluvchi maqol, matal va iboralarni taqdim qilmoqdamiz.

| | | |
|---|---|---|
| Aytilgan so'z - otilgan o'q | / | Söz ağızdan bir kere çıkar |
| Aytishga oson | / | Dile kolay |
| Aqlini to'plamoq | / | Aklını başına almak, aklını başına devşirmek |
| Aqlingga balli! | / | Aklınla bin yaşa! |
| Aravasiga tushgan jirini ham jirlar | / | Kimin arabasına binerse onun türküsünü çağırır |
| Arqonini ko'rib bo'zini ol, onasini ko'rib qizini ol | / | Anasına bak kızını al, kenarına bak bezini al |
| Arpa ekkan arpa o'rar, bug'doy ekkan bug'doy | / | Arı eken arı, darı eken darı alır |
| Arzon beillat emas, qimmat behikmat emas | / | Ucuzdur vardır illeti, pahalıdır vardır hikmeti |
| Ahmoqlik qilmoq | / | Aptallık etmek |
| Ahmoq oyog'idan horiydi; boshda aql bo'lmasa, oyoqqa zo'r keladi | / | Akılsız başın zahmetini (cezasını) ayaklar çeker; akılsız köpeği yol kocatır |
| Ahmoqqa javob – sukut | / | Ahmağa susmaktan iyi cevap olmaz; sessizlik aptala verilen en iyi cevap |

Ahmoqqa To'ytepa nima yo'l / Ahmak ayağına üşenmez

Ahmoqqa so'zlagan esiz so'zim, o'likka yig'lagan esiz ko'zim / Gafile kelam, nafile kelam

Ahmoq do'stdan aqlli dushman yaxshi / Akılsız dosttan akıllı duşman iyidir; akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır

Avval o'zingga boq, so'ngra nog'ora qoq / Önce kendine bak, sonra başkasını çekiştir

Azaga borgan o'z dardini aytib yig'lar / Herkes kendi ölüsü için ağlar; ağrılardan göz ağrısı, her kişinin öz ağrısı

Baliq boshidan sasiydi / Balık baştan kokar

Beshikdan qabrgacha ilm izla; umr bo'yi o'rgan / Beşikten mezara kadar ilim öğren

Berganning betiga qarama / Bahşiş atın dişine bakılmaz; bedava sirke baldan tatlıdır

Besh pulsiz qolmoq / Arafat'ta soyulmuş hacıya dönmek

Bilog'onlik qilmoq / Bilgiçlik taslamak

Biri-biridan battar / Al birini vur ötkini

Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak / Elbet bir gün güneş bizim içinde doğacak

Bir o'q bilan ikki quyonni urmoq / Bir taşla iki kuş vurmak

Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla / Bir elin nesi var, iki elin sesi var

Bir yomonlikning bir yaxshiligi bor / Her şerde bir hayır vardır; her kötülükte bir iyilik vardır

Bir yomonlik undan ham battar yomonlikni o'ziga tortadi; o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas / Dert dert düzer; can çıkar, huy çıkmaz; huylu huyundan vazgeçmez; kırk yıllık Kani, olur mu Yani; huylu huyundan teneşirde vazgeçer

Bir qozonda ikki qo'chqorning boshi qaynamas / İki koçun kafası bir kazanda kaynamaz; iki at bir kaziğa bağlanmaz, iki baş bir kazanda kaynamaz; iki canbaz bir ipte oynamaz; bir koltuğa iki karpuz sığmaz

Biri bog'dan (kelsa), biri tog'dan (keladi) / Dam üstüne saksağan, vur beline kazmayı

Birovning haqqi birovda qolmas / Sap döner, keser döner, gün gelir hesap döner

Birovning uyidan o'zingning chaylang issiq; o'z uying – o'lan to'shaging / Çalı idi çırpı idi, evim idi ya, ayı idi uyu idi, kocam idi ya

Bitta tirraqi buzoq butun podani bulg'aydi / Bir baş soğan bir kazanı kokutur; bir korkak bir orduyu bozar

Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning / Bir senden büyüğün, birde senden küçüğün sözünü dinle

Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber / Bir gün tuz (ekmek) yediğin yere kırk gün selam ver; bir fincan kahvenin kırk yıl hatırı vardır

Birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan / El için kuyu kazan, evvela kendisi düşer; kazma kuyuyu kendin düşersin

Bolaga ish buyur, orqasidan o'zing yugur / Çocuğa iş sal, ardınca sen var; çocuğa iş buyuran, ardınca kendi gider; çocuğa iş buyuran, ardına kendi düşer; çocuğa iş, ardına sen düş

Bor tovog'im, kel tovog'im / Al gülüm, ver gülüm

Boshi oqqan tomonga ketmoq; o'ylamay-netmay yo'lga tushmoq / Başını alıp gitmek; çekip gitmek; basıp gitmek

Boshga tushganni ko'z ko'rar / Başa gelen çekilir

Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi / Kelle sağ olsun da külah bulunur

Bor edi, yo'q bo'ldi / Bir varmış, bir yokmuş; haydan gelen huya gider, selden gelen suya gider

Bukrini go'r tuzatadi; sut (qon) bilan kirgan jon bilan chiqar; yo'rgakda tekkan kasal o'lganda ham ketmaydi / Kötüyü teneşir paklar; tende gelen teneşirde gider; sütle giren huy, canla çıkar; arlı arından huylu huyundan vazgeçmez

Bu hunar o'tmaydi / Bu numaralar sökmez; yemezler

Bugungi ishni ertaga qo'yma / Bugünün işini yarına bırakma; akşamın işini sabaha bırakma

Bo'ynida illati borning oyog'i qaltiraydi / İşkilli büzük dingiller

Bekor turguncha, ishla / Boş gezmekten bedava çalışmak yeğdir; boş durma bedava çalış

Gilam sotsang, qo'shningga sot, bir chetida o'zing o'tirasan / Keçe satarsan komşuya sat, bir kenarında kendin de otursun

Gul tikansiz bo'lmaydi / Gül dikensiz olmaz; dikensiz gül olmaz

Dangasaga ish buyursang, senga aql o'rgatar / Tembele iş buyur, sana akıl öğretsin

Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham, qishi bitmas / Tembelin işi bitmez yaz gelse bile kışı bitmez

Devorning ham qulog'i bor / Duvarın kulağı var gözünü de unutma

Dunyoda yaxshi odamlar ko'p; gadoyga bir eshik yopiq bo'lsa, biri – ochiq / Dünyada iyi kalpli insanlar çok; Allah gümüş kapıyı kaparsa, altın kapıyı açar; bir kapı kapanırsa, bin kapı açılır

Dunyoni suv bossa, to'pig'iga ham chiqmaydi / Köy yanar, deli (kız) taranır

Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib / Dost ağlatır, düşman güldürür; dost acı söyler

Do'st boshga boqar, dushman oyoqqa / Dost başa bakar, düşman ayağa; dost başa, düşman ayağa bakar

Do'st boshga kulfat tushganda sinaladi; do'st kulfatda sinaladi / Dost kara günde belli olur

Do'stim deb siringni aytma, do'stingning ham do'sti bor / Açma sırrını dostuna, o da söyler dostuna; deme dostuna, der dostuna, bir gün olur tuz basarlar postuna

Do'stning eskisi yaxshi, kiyimning yangisi / Her şeyin yenisi, dostun eskisi

| | | |
|---|---|---|
| Do'sting ola qarg'a bo'lsa, yeganing go'ng bo'ladi | / | Karga ile gezen pisliğe konar; itle yatan bitle kalkar |
| Egilgan boshni qilich kesmas | / | Eğilen baş kesilmez; aman diyene kılıç kalkmaz |
| Elchiga o'lim yo'q | / | Elçiye zeval olmaz |
| Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong'i chiqmas | / | Yalnız atın tozu çıkmaz, tozu çıksa sesi çıkmaz |
| Yomg'irdan qutulib, do'lga tutilmoq | / | Yağmurdan kaçarken doluya tutulmak |
| Yor bo'lsa, kapa ham jannat | / | İki gönül bir olunca samanlık seyran olur |
| Yetti uxlab tushiga ham kirmaslik | / | Aklından bile geçmemek; aklının kenarından bile geçmemek |
| Yetti o'lchab, bir kes | / | Yedi defa ölç, bir defa kes; dokuz ölç, bir biç |
| Jon derdimu, "lekin"i bor-da | / | Benim canıma minnet, aması var |
| Jo'jani kuzda sanaydilar | / | Cücüğü güzün sayarlar |
| It hurar, karvon o'tar | / | İt ürür, kervan yürür |
| Ish ishdan kechdi | / | Atı alan Üsküdar'ı geçti |
| Ishtaha osh ustida; ishtaha ovqat bilan birga keladi | / | İştah dişin dibindedir |
| Yiqilishimni avvaldan bilganimda, bir dona poxolpoyadan to'shak qilar edim; otimning o'lishini bilganimda, tuzga almashardim | / | Babamın öleceğini bilseydim kulağı dolu darıya satardım |
| Yo'qotgandan ko'ra topgan yaxshi | / | Kaybetmektense kazanmak iyidir (güzeldir) |
| Yo'g'on cho'zilar, ingichka uzilar | / | Kalın incelene kadar ince süzülür |
| Kam gapir-u ko'p ish qil; ko'p gap eshakka yuk | / | Az söz erin yüküdür, çok söz hayvan yüküdür; çok laf eşek yüküdür |
| Katta kemaga katta safar munosib; eshagiga yarasha tushovi; kengga keng dunyo, torga tor | / | Büyük başın derdi büyük olur; her dağın derdi kendine göre |

Katta arava qayoqdan yursa, kichik arava ham o'sha yoqdan yuradi / Ön tekerlek nereden giderse, arka tekerlek de oradan gider; ön tekerlek nereye giderse arka tekerlek de oraya gider

Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni / Bir mercimek bir göz çıkarmış

Ko'p gap eshakka yuk / Çok laf eşek yüküdür

Ko'zdan nari – ko'ngildan (qalbdan) nari / Gözden ırak olan gönülden de ırak olur

Ko'z qo'rqoq, qo'l botir / Göz korkak kol batır

Ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq / Ayağını yorganına göre uzatmak

Mastlik – rostlik / Sarhoşlar ve çocuklar doğruları söylerler

Men ali desam, u bali deydi; men tog'dan kelsam, u bog'dan keladi / Ben diyorum anya sen diyorsun Konya; dam üstüne saksağan, vur beline kazmayı

Mehnatsiz rohat yo'q; jon chekmaguncha jonona qayda / Emek olmadan yemek olmaz; zahmetsiz rahmet olmaz

Ming qo'ylikning ishi ham bir qo'ylikka tushadi / Altın kapılının ağaç kapılıya işi düşer

Tepsa-tebranmas; sallasi yonayotganda ham mening uchun xudo deb qo'y, deydi / Tembele dediler kapını ört, dedi yel eser örter

Teng tengi bilan, keli sopi bilan / Baz bazla, kaz kazla, kel tavuk topal horazla

Toma-toma ko'l bo'lur / Damlaya damlaya göl olur

Mulla quruq; bosh qashishga tirnoq ham qolmadi / Ateşe vursan duman çıkmaz

Mug'ombir axir tumshug'idan ilinar / Bir sıçrarsın çekirge, iki sıçrarsın çekirge, üçüncüde ele geçersin çekirge

Oz bo'lsinu, soz bo'lsin / Az olsun, öz (uz) olsun

Oyni etak bilan yopib bo'lmas / Güneş balçıkla sıvanmaz

Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug' / Ayın on beşi karanlıksa, on beşi aydınlıktır

Omon bo'lsak, ko'rarmiz / Gün ola, hayır ola

Oralaridan qora mushuk o'tmoq / Aralarından kara kedi geçmek

Oxiri baxayr bo'lsin / Sonu hayır olsun; Allah sonunu hayır etsin

Oshig'i olchi / Dokurcunu düzgün, tuzu kuru

Oqni oq, qorani qora demoq / Beyaza beyaz siyaha siyah demek

Oq it, qora it – bari bir it / Ak it, kara it, hepsi bir it

Og'zidan bol tomib gapirmoq / Ballandıra balandıra anlatmak

Og'zi qulog'iga yetmoq / Ağzı kulaklarına varmak; bastığı yeri bilmemek

Pashshadan fil yasamoq / Bir kaşık suda fırtına kopartmak

Sabr tagi sariq oltin / Sabırla koruk helva, dut yağrağı atlas olur

Sirti yaltiroq ichi qaltiroq / Dışı kalaylı, içi alaylı

Six ham kuymaydi, kabob ham / Ne şiş yansın ne kebap

Sizdan ugina bizdan bugina / Ne kadar ekmek o kadar köfte; böyle başa böyle teraş

Suv keltirgan xor-zor, ko'za sindirgan aziz / Suyu getiren de bir, testiyi kıran da; testiyi kıran da bir, suyu getiren de

Suv ko'rmay, etik yechma / Çayı görmeden paçaları sıvama; dibi görünmeyen sudan geçme; karpuz kabuğunu görmeden denize girme; aye gsrmeden bayram etme

Suluv – suluv emas, sevgan – suluv / Gönül kimi severse güzel odur

Sukut – rozilik alomati / Susmak, razı olmanın işaretidir; sükût, razı olmanın kardeşidir; sükût, ikrardandır

Sutdan tili kuygan qatiqni puflab ichar / Sütten ağzı yanan, yoğurdu üfleyerek yer

Tez kirishgan bot qaytar / Çok koşan çabuk yorulur; çok seğirten tez yorulur

Temirni qizig'ida bos / Demir tavında dövülür; yara sıcakken sarılır

Tushirib qo'ygan narsangni qo'ldan ketdi deyaver / Dökülen yağ yerini tutmaz

Tuya ko'rdingmi – yo'q / Deve gördün mü? Hayır

To'rt oyoqli ot ham qoqiladi / Düşmez kalkmaz bir Allah

To'qayga o't ketsa, ho'lu quruq barobar yonar / Yaşın arasında (yanında) kuru da yanar

To'ydan keyin nog'ora / Akşamdan sonra sabahlar hayrolsun; akşamdan sonra merhaba

Uzoqdagi quyruq (dumba)dan yaqindagi o'pka yaxshi / Baskıdaki altından askıdaki salkım yeğdir

Falokat, musibat eshik qoqib kelmaydi / Kaza geliyorum demez

Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas / Rüzgâr esmeyince yaprak oynamaz (dal kımıldamaz)

Shoshgan shaytonning ishi / Acele işe seytan karışır

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi / Serçeden korkan darı ekmez

Cho'kayotgan cho'pga yopishar / Denize dyuen yelana (yosuna) sarılır

Erta tong – oltin kon / Erken kalkan yol alır

Eshak Makkaga borib halol bo'lmas / Deve Kabeye gitmekle hacı olmaz

Echkiga jon qayg'u, qassobga moy qayg'u / Keçi can derdinde kasap yağ derdinde; koyun can derdinde, kasap et derdinde

Yangi supurgi toza supuradi; yangi ko'zaning suvi totli / Taze bardağın suyu soğuk olur

O'ldirsa ham, osh o'ldirsin / Atın ölümü arpadan olsun

O'z holiga tashlab qo'ymoq / Başıboş bırakmak; başını boş bırakmak

O'zingda yo'q, olamda yo'q; yo'qni yo'ndirib bo'lmas; yo'q bo'lsa yo'q-da / Yoktan yonga çıkmaz; her şeyin yokluğu yokluktur

O'zimdan chiqqan baloga, qayga boray davoga / Araca balta vurmuyular sape bedenimden demiş

O'zingni bil, o'zgani qo'y / Bir mum al da derdine yan

O'ziga xon, o'ziga bek / Başına buyruk

O'z uyim, o'lan to'shagim / Adamın öz evi, öz gârı; çalı idi çırpı idi evim idi ya, ayı idi, uyu idi erim idi ya

O'tmas pichoq qo'l kesar / Kör (kesmez) bıçak ele (yavuz), iş bilmeyen avrat dile (yavuz)

O'tgan ishga salovat / Geçmişe mazi, yenmişe kuzu derler; av avlanmış, tav tavlanmış

O'g'rini qaroqchi uribdi / Dinsizin hakkından imansiz gelir

Qaysi shamol uchirdi? / Hangi rüzgâr attı?

Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi / İt iti ısırmaz; it itin kuyruğuna basmaz

Qish g'amini yoz yeydi, xo'ragini soz yeydi / Yazın başı pişenin, kışın aşı pişer; ağustosta beyni kaynayanın zemheride kazanı kaynar

Qorni ochning tushiga non kiradi; och tovuqning tushiga tariq kiradi / Aç tavuk düşünde darı (buğday harmanı) görür

Qorni to'qning qorni ochdan ne xabari bor / Tok açın hâlinden bilmez; var ne bilsin yok hâlinden

Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqaribdi / Kaş yapayım derken göz çıkarmış

Hammasi o'rtada / Ay aydın, hesap belli; aydan arı, günden duru

Har ishning (narsaning) o'z vaqti-soati bor / Terazi var, tartı var, her şeyin bir vakti var; terazi tarteyla, her yuey vaktiyle

| | | |
|---|---|---|
| Hechdan ko'ra kech | / | Geç olsun da güç olmasın |
| Hisobini bilmagan hamyonidan ajralar | / | Hesabını bilmeyen kasap, ne satır bırakır, ne masat |
| Hovli olma, qo'shni ol | / | Ev alma, komşu al |
| Chaqirgan yerga bor, chaqirmagan yerda nima bor? | / | Gel denilen yere gitmeye ar eyleme, gelme denilen yere gidip yerini dar eyleme |

# 7-QISM. 7. BÖLÜM

## JARGON VA ARGOLAR / JARGON VE ARGOLAR

Turk tili lug'at zaxirasi tobora o'sib va o'zgarib bormoqda. Chunki har bir yangi tushuncha kamida bitta so'z bilan ifodalanadi, qolaversa, yangi so'zlar eski tushunchalarning yangilanishidan dunyoga keladi. Shu jumladan, jargon va argolar lug'ati ham.

Argolar umum qabul qilingan adabiy tilga teskari o'laroq, ma'lum bir tor doirada – u yoki bu ijtimoiy tabaqa, kasb egalari guruhi orasida qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, argolar "ko'cha so'zlari" deb ham ifodalanadi.

Argolar turli kasbga oid bo'lishi mumkin, ularni tushunish biroz qiyinroq.

Quyida siz odamlar bilan so'zlashganda bir-biringizni yaxshiroq tushunishingiz uchun ko'p qo'llaniladigan jargon va argolarni bermoqdamiz.

| | | |
|---|---|---|
| Abayı yakmak | / | Ko'r-ko'rona oshiq bo'lmoq |
| "Ablan star bebeğim" | / | "Opang yulduz chaqalogim" deb tarjima qilinadigan "O'zimni malikalarday his qilyapman" ma'nosida qo'llaniladigan jumla |
| Abuk-sabuk konuşmak | / | O'ylamay-netmey gapirmoq |
| Adamın dibi | / | Mard odam |
| Akide şekeri | / | Chiroyli va hushbichim erkak kishi |
| "Aklına tüküreyim!" | / | "Aqlinga tupuray!" |
| Akort etmek | / | Kaltaklab, tanib bo'lmaydigan holga keltirmoq |
| Alabanda çekmek | / | Bo'ralab so'kmoq |

Alabandayı yemek / Qattiq so'kish eshitmoq

Alarga durmak / Uzoq turmoq, o'zini olib qochmoq

Alay geçmek / Mazax qilmoq, ermak qilmoq

Altı okka / Juda zor, juda yaxshi, mukammal

Ana avrat düz gitmek / Urug'-aymog'ini bo'ralab so'kmoq

Anahtarcı, arakçı / O'g'ri

Apandisini almak / Qornidan pichoqlamoq

Arazi olmak / Qochib ketmoq, qochib yashirinmoq

Armut, kaşalot, kelek, pilaki / To'nka, ahmoq

Aslan yatağı, delik, mehterhane / Qamoqxona, turma

Ateşlesene / Ber, bersang-chi

"Atma Recep din kardeşiyız" / "Og'zinga kelganni valdirama, baribir ishonmaymiz"

Atmak / Og'ziga kelganni gapirmoq, o'ylamay-netmay gapirmoq

Aşıramento, tırtıklamak, yürütmek, zula etmek / O'g'irlamoq

Aşna fişne / Hamtovoq

Avanta almak / Haqsiz yerga foyda olmoq

Avurtlu / Olifta

Ayran ağızlı / Safsataboz, safsatachi

Ayaz kalmak / Sariq chaqasiz qolmoq, bir tiyin pulsiz qolmoq

"Ayupsın!" / "Ayb qilding!"

Ayvayı yemek / Yomon ahvolga tushmoq, ishi orqaga ketmoq

Babaçko, vardakosta / Baquvvat, satang ayol

Babalanmak / Xo'rozlanmoq

Balta olmak / Xirapashshalik qilmoq

Bamburuklarını sökmek / Sillasi quriguncha do'pposlamoq, o'lasi qilib do'pposlamoq

Bando mızıka / Haqorat, so'kish

Bas git / Daf bo'l

Bayramlık ağzını açmak / Qo'pol gaplashmoq, so'kmoq

Beleş / Tekin, pulsiz, bepul

Beleşçi / Tekinxo'r, tekintomoq

"Ben şok, ben iptal" / "Men hayratdaman"

Bıyıklıya piyaz vermek / Militsiya xodimiga pora bermoq

Biletini kesmek, işini görmek, nalla-mak / O'ldirmoq

Bilezik / Kishan

Bit atmak / Ko'ngliga shubha solmoq

Bocurgat yapmak / Burnini kovlamoq

Bro / "Brother" so'zining qisqartirilgan ifo-dasi (erkaklar orasida)

Caka / Manmanlik, kibr

Camekan / Ko'zoynak

Cavalacoz / Ahamiyatsiz, qiymatsiz, arzimas

Cavlamak, kakırdamak, kıkırdamak, kuyruğu titremek, mortlamak, mor-toyu çekmek, nalları dikmek, yürü-mek, zartayı çekmek / O'lmoq

Cukkasını almak / Ulushini olmoq

Çaça / Ko'cha xotini

Çakal / Ayyor, mug'ombir

Çakoz olmak / Sezmoq, fahmlamoq

| | | |
|---|---|---|
| "Çaktın mı köfteyi?" | / | "Masalani tushundingmi?" |
| Çarık | / | Hamyon |
| Çatlak ses | / | Yoqimsiz ovoz |
| Çeyrek | / | Marka (Germaniya pul birligi) |
| Çıngar | / | Shovqin-suron |
| Çifte dikiş | / | Bir sinfda ikki yil o'qish |
| Dandik | / | Sifatsiz |
| Demirhindi, yahudi | / | Xasis, ziqna |
| Deve olmak | / | Yo'qolmoq, g'oyib bo'lmoq |
| Dikizlemek | / | Zimdan kuzatmoq |
| Düdük makarnası | / | Kaltafahm |
| Dut gibi olmak | / | Juda mast bo'lmoq, uyalmoq |
| Düdük, kaşkaval | / | Aqlsiz, beaql, ahmoq, xom kalla |
| Enselemek | / | Ilintirmoq, qo'lga tushirmoq |
| Ezik | / | Bechora, chorasiz, ilojsiz |
| Faça | / | 1. Yuz, chehra. 2. Kiyim |
| Fır, fırlama | / | 1. Haromi. 2. Iflos, yaramas |
| Filinta | / | Xushro'y, go'zal, chiroyli |
| Frigo | / | Badqovoq, qovog'i soliq, xo'mraygan |
| "Gazla!" | / | "Qoch, qochib qol, juftakni rostlab qol!" |
| Gazlamak, gaz vermek | / | Qayramoq, gijgijlamoq, tezlamoq, xezlamoq |
| Gerzek, bal kabağı | / | Aqlsiz, aqli past, esi past |
| Gıcık etmek | / | G'ashiga tegmoq |
| Gıcır | / | Yangi |

Gır / 1. Safsata, quruq gap. 2. Yolg'on, uydirma

Gır atmak / Gap otmoq

Hasta / Kambag'al, bechora, xarob, abgor

Hava almak / Umidlari puchga chiqmoq

Hava basmak / Kibrlanmoq, katta ketmoq

Havyar kesmek / Vaqtini behudaga sarflamoq

Hıyar / Qo'pol, to'ng, qo'rs, befarosat, farosatsiz

Hödük / Aqli katla, befahm, dumbul

Iskalamak / Nishonga tekkiza olmaslik, maqsadga yetisha olmaslik

Islak karga / Quyon yurak, yuragi yo'q, qo'rqoq

İbne, kopil, puluç / Xunasa, hezalak

İlik gibi / Juda go'zal ayol

İnek / Tirishqoq o'quvchi

İplemek / Hurmat qilmoq

Kafa ütülemek / Kalla shishirmoq, gapiraverib boshni og'ritib yubormoq

Kalay / So'kish, haqoratli so'zlar, uyat so'zlar

Kalayı basmak / Bo'ralab so'kmoq

Kafayı üşütmüş / Tomi ketib qolibdi

Kanka, pampa, karşim / Yaqin do'st, qalin do'st

"Kapış?" / "Tushundingmi? Ma'nosini angladingmi?"

Kaşar / Ustamon, pishiq, quv, mug'ombir

Katakulli / Yolg'on-yashiq, hiyla-makr, firib

Kayarto / Qo'shmachi, dalla

Kaynamak / Orada unutilmoq, orada yo'qolmoq

Kaypak / Beburd, tayinsiz, subutsiz

Kemik atmak / Og'zini yog'lamoq, og'zini yopmoq

Kendini fasulye gibi nimetten saymak / O'zini qadrli (voz kechilmaydigan, muhim) deb hisoblamoq

Keriz / Laqma, go'l

Kesilmek, yeşermek / Juda yoqtirib qolmoq

Kesmek / Yolg'on gapirmoq

Kıytırık / Sifatsiz, ahamiyatsiz, arzimas

Kokoroz / Xunuk, ko'rimsiz, badbashara

Kontak / Jinni, aqldan ozgan, savdoyi, telba

Limoni / Yaxshi emas, buzuq, chuchmal

Manita / Sevgili, yor, ma'shuq(a), mahbub(a)

Madara etmek / Yomon ahvolga tushirmoq, sharmanda qilmoq

Makaraları koyuvermek / Qahqaha otib kulmoq

Mandepsi / Tuzoq

Mandepsiye basmak / Tuzoqqa tushmoq

Mangiz, tıkır, tıngır / Pul

Maval / Yolg'on-yashiq gap, uydirma gap-so'z

Maya, yırtık / Orsiz, oriyatsiz, uyatsiz

Mercimeği fırına vermişler / Ishni pishitishibdi

"N'aber?" / "Nima gaplar?"

"Oh olsun!" / "Battar bo'l!"

Oltayı yutmak / Changalga ilinmoq, aldanmoq

| | | |
|---|---|---|
| Paçoz | / | Fohisha |
| Pantuflacı | / | Muttaham, firibgar, tovlamachi |
| Pestil | / | Bemor, kasal |
| Pinpon | / | Keksa, qari, qariya |
| Racon | / | Xo'jako'rsin, hasham, dabdaba |
| Röntgenci | / | Ayollarni yashirincha kuzatishga odatlangan erkak |
| Saçmalamak | / | O'ylamay-netmey gapirmoq |
| Sağmak | / | Aldab pulini olmoq, hiyla bilan pulini shilmoq |
| Saksı | / | Bosh, kalla |
| Sallamak | / | tarsaki tushirmoq |
| Sallamamak | / | Ahamiyat bermaslik |
| Saloz | / | Tentak, esi past, ovsar |
| Sigortası atmak | / | Chig'iriqdan chiqmoq |
| Sinek avlamak | / | Pashsha qo'rimoq, bo'sh o'tirmoq |
| Sista | / | "Sister" so'zining qisqartirilgan ifodasi (Qizlar orasida) |
| Su koyuvermek | / | 1. Yarim yo'lda tashlab ketmoq. 2. O'yinbuzarlik qilmoq, g'irromlik qilmoq. 3. So'zidan qaytmoq |
| Şaban, şavalak | / | Merov, anqov |
| Şapa oturmak | / | Murakkab vaziyatga tushib qolmoq |
| Tayfa | / | Hamtovoq, sherik |
| Teklemek | / | Duduqlanmoq |
| Toslamak | / | Pul bermoq |
| Tütsü | / | Ichki |

| | | |
|---|---|---|
| Uçurmak | / | Yashirincha xabar bermoq |
| Üç buçuk atmak | / | Juda qo'rqmoq |
| Üşütmek | / | 1. Jinni bo'lmoq, aqldan ozmoq.<br>2. Vaysamoq, valdiramoq |
| Üşütük | / | Aqldan ozgan, tomi ketgan |
| Varta | / | Tahlikali vaziyat |
| Vartayı atlatmak | / | Tahlikadan qutilmoq |
| Yağcı | / | Xushomadgo'y, laganbardor |
| Zamkinos etmek | / | Qochmoq |
| Zırtapoz | / | Odambezor, otabezori, bezori, sarsari |
| Zokayı yutmak | / | Tuzoqqa tushmoq, chuv tushmoq |

*Izoh va qaydlar uchun*

*Izoh va qaydlar uchun*

*Izoh va qaydlar uchun*

*Ilmiy-ommabop nashr*

# O‘ZBEKCHA-TURKCHA
## SO‘ZLASHUV KITOBI

# ÖZBEKÇE-TÜRKÇE
## KONUŞMA KILAVUZU

**Muharrir:** Alisher TURSUNOV
**Badiiy muharrir:** Bahriddin BOZOROV
**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV
**Sahifalovchi:** Inomjon O‘SAROV
**Musahhih:** Mahfuza IMOMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009
Terishga berildi: 24.01.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 30.07.2021-y.
Gazeta qog'ozi. Qog'oz bichimi: 84x108 $^{1}/_{32}$.
Good Pro garniturasi. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t.: 8,92. Shartli b.t.: 10,2.
Adadi: 3000 nusxa.
Buyurtma № 90/246

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20$^{A}$-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 216-87-81
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

ISBN 978-9943-5931-7-6